

2026 yilgi imtihon namunasi



2026 йилги имтиҳон намунаси



B.TX

Soliq solish asoslari

2026 yilgi imtihon namunasi



Mundarija

A BO'LIMI. Testlar	2
B BO'LIMI. Ssenariylar.....	14
A-BO'LIMI. Testlar	20
B-BO'LIMI. Ssenariylar	29

B.TX Soliq solish asoslari



E'tibor bering!

Sinov imtihonining testlari va topshiriqlari 2025 yil 1 yanvar holatiga ko'ra amalda bo'lgan me'yoriy-huquqiy hujjatlarga asoslangan.



E'tibor bering!

Topshiriqlarni echishda javoblar yozuvi qoidalarini inobatga oling. Agar topshiriq shartida raqamlar ming hisobida ko'rsatilgan bo'lsa, javob ham ming hisobida ko'rsatilishi kerak.

A BO'LIMI. TESTLAR

Savollar

1-savol

Quyidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarni yuridik kuchining kamayishi tartibida joylashtiring:

1. Prezidentning 30.01.2025 yildagi «Chorvachilik va parrandachilikni qo'llab-quvvatlash, sohada yuqori qo'shilgan qiymat yaratish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-34-son qarori
2. Soliq qo'mitasining 2024 yil 26 iyundagi «Yuridik shaxslarni yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiritishning mezonlarini belgilash to'g'risidagi nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi 2024-08-son qarori
3. Soliq kodeksi
4. Vazirlar Mahkamasining 26.12.2024 yildagi «O'zbekiston Respublikasida elektron tijorat sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 885-son qarori
5. Xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining 26.12.2024 yildagi «2025 yil uchun Toshkent shahar mahalliy byudjetini tasdiqlash to'g'risida»gi VII-4-024-14-0-K/24-son qarori

A. 3, 1, 4, 2, 5

B. 1, 3, 4, 2, 5

C. 4, 1, 3, 5, 2

D. 3, 4, 2, 3, 5

2-savol

Soliq kodeksining 369-moddasida «Jami daromadga kiritilmaydigan daromadlar» qonun hujjatlarida belgilangan me'yorlar doirasida soliq agenti tomonidan xizmat safarida bo'lingan vaqt uchun to'lanadigan kundalik xarajatlar uchun haq (sutkalik pullar) soliq to'lovchining daromadi sifatida qaralmasligi haqidagi me'yor mavjud. Ushbu me'orning 369-moddadagi joylashuvini ko'rsating - xatboshi, band, qism.

- A. 3-qismning 8-bandi 5-xatboshisi
- B. 3-qismning 8-bandi 4-xatboshisi
- C. 1-qismning 19-xatboshisi
- D. 3-qismning 8-xatboshisi

3-savol

Hisobot oyi uchun aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha hisobotni taqdim etish muddatining so'nggi (15-sana) kuni yakshanba kuniga to'g'ri keldi. Qaysi kun hisobotni taqdim etishning so'nggi kuni hisoblanadi? (1.2 E-b.)

- A. yakshanba, 15-sana
- B. shanba, 14-sana
- C. juma, 13-sana
- D. dushanba, 16-sana

4-savol

Quyida sanab o'tilgan qaysi vaziyat (vaziyatlar)da qat'iy belgilangan summada aylanmadan olinadigan soliq to'lovchi bo'lgan korxona soliq agenti sifatida ish yuritadi?

- A. jismoniy shaxs bo'lgan ta'sisshiga dividendlar to'lashda
- B. komissioner bo'lgan yakka tartibdagi tadbirkorga mukofot to'lashda
- C. jismoniy shaxs bo'lgan ijaraga beruvchiga ijara to'lovini to'lashda
- D. o'zini o'zi band qilgan shaxsga u ko'rsatgan xizmatlar uchun daromad to'lashda

5-savol

Korxona yuridik va jismoniy shaxslar bilan ko'chmas mulk ijarasi shartnomalarini tuzadi:

- 1-sonli shartnomani u ijaraga beruvchi sifatida tuzadi, ijaraga oluvchi – yuridik shaxs;
- 2-sonli shartnomani u ijaraga beruvchi sifatida tuzadi, ijaraga oluvchi – yakka tartibdagi tadbirkor bo'lmagan jismoniy shaxs;
- 3-sonli shartnomani u ijaraga beruvchi sifatida tuzadi, ijaraga oluvchi – yakka tartibdagi tadbirkor;
- 4-sonli shartnomani u ijaraga oluvchi sifatida tuzadi, ijaraga beruvchi – yuridik shaxs;
- 5-sonli shartnomani u ijaraga oluvchi sifatida tuzadi, ijaraga beruvchi – yakka tartibdagi tadbirkor bo'lmagan jismoniy shaxs.

Korxona qaysi ijara shartnomalarini ijara.soliq.uz servisi orqali soliq organlarida hisobga qo'yishi kerak?

- A. 1, 2, 3
- B. 1, 2, 3, 4, 5
- C. 1, 3, 4
- D. 2, 5

6-savol

Soliq solish ob'ektlari va soliq solish bilan bog'liq ob'ektlarning alohida-alohida hisobini yuritishning qanday usullari mavjud?

- A. mutanosib usul
- B. me'yoriy usul
- C. hisoblash usuli
- D. to'g'ridan-to'g'ri hisobga olish usuli

7-savol

Tekshiruvdan oldingi tahlil chog'ida soliq organi korxona taqdim etgan soliq hisobotida tafovutlarni aniqladi. 13 iyul kuni (payshanba kuni) korxonaga soliq to'lovchining shaxsiy kabineti orqali soliq hisobotiga tegishli tuzatishlar kiritish to'g'risida xabarnoma yuborildi. Shu kunning o'zida korxonaning bosh buxgalteri xabarnoma bilan tanishdi. Korxona qaysi sanadan kechiktirmay aniqlashtirilgan soliq hisobotini yoki aniqlangan tafovutlarning asosnomasini taqdim etishi kerak?

- A. 27 iyul
- B. 22 iyul
- C. 26 iyul
- D. 24 iyul

8-savol

O'zbekistonning rezident va nerezident bo'lgan jismoniy shaxslarga soliq solishdagi farqlar nimadan iborat?

- A. mehnat shartnomalari (kontraktlari) va fuqarolik-huquqiy xususiyatdagi shartnomalar bo'yicha rezidentlar va nerezidentlarning daromadlariga turli soliq stavkalari bo'yicha soliq solinadi
- B. nerezidentlarning daromadlariga Soliq kodeksida nazarda tutilgan soliq imtiyozlari qo'llanilmagan holda soliq solinadi
- C. rezidentlarning dividend tarzidagi daromadlariga boshqa korxonalarda ishtirok etishdan olingan dividendlarni hisobga olish tamoyili bo'yicha soliq solinadi. Nerezidentlarning dividendlariga soliq solishning bunday tartibi qo'llanilmaydi
- D. rezidentlarning mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlariga qonunchilikda belgilangan ijara to'lovining eng kam stavkalarini hisobga olgan holda soliq solinadi. Nerezidentlarning shunga o'xshash daromadlariga soliq solishning bunday tartibi qo'llanilmaydi

9-savol

Hisobot oyi uchun korxona xodimlarga quyidagi daromadlarni hisobladi:

- haqiqatda bajarilgan ish uchun ish haqi – 120 000 ming so'm;
- faxriy unvon uchun ustama – 500 ming so'm;
- vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik nafaqasi – 500 ming so'm;
- korxonaning mukofotlash to'g'risidagi nizomiga muvofiq chorak yakunlari bo'yicha mukofot – 10 000 ming so'm;
- tug'ilgan kun munosabati bilan mukofot – 1 000 ming so'm;
- isitish tizimining shikastlanishi munosabati bilan kvartirani qisman ta'mirlash uchun moddiy yordam – 2 000 ming so'm;
- farzand tug'ilishi munosabati bilan moddiy yordam – 3 000 ming so'm;
- ovqatlanish uchun qo'shimcha to'lov – 3 000 ming so'm;
- pensioner xodimga pensiyaga qo'shimcha to'lov – 1 000 ming so'm;
- korxona muassisi bo'lgan direktorga dividendlar – 10 000 ming so'm;
- murabbiylik uchun lavozim maoshiga ustama – 1 000 ming so'm.

Korxona tomonidan hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar nimaga teng?

- A. 138 500 ming so'm
- B. 139 000 ming so'm
- C. 137 000 ming so'm
- D. 137 500 ming so'm

10-savol

Ta'sischilar umumiy yig'ilishining qaroriga ko'ra korxona ta'sischilardan biri –O'zbekiston rezidentiga 30 000 ming so'm miqdorida dividendlar hisobladi. Dividendlar to'lovi hisobiga unga 10 000 ming so'mlik qurilish materiallari beriladi. Qolgan summa pul mablag'lari bilan to'lanadi. Berilgan materiallarning tannarxi 8 000 ming so'mga teng. Shuningdek, korxona ushbu muassisdan maydoni 100 kv.m bo'lgan noturar joyni (er solig'i bo'yicha soliq solish maqsadlarida belgilangan 2-zona) ijaraga oladi. Shartnomaga asosan ijara to'lovining miqdori oyiga 7 000 ming so'mni tashkil etadi. Toshkent shahrining 2-zonasida noturar joylarni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun soliq solish maqsadlarida belgilangan ijara to'lovining eng kam stavkasi oshiruvchi koeffisientni hisobga olgan holda umumiy maydonning 1 kv. metri uchun oyiga 90 ming so'mga teng. Ta'sischining daromadlaridan ushlab qolinishi lozim bo'lgan JSHDS nimaga teng?

- A. 2 580 ming so'm
- B. 2 340 ming so'm
- C. 2 080 ming so'm
- D. 1 840 ming so'm

11-savol

Fuqarolik-huquqiy xususiyatdagi shartnoma bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar uchun korxona jismoniy shaxsga yanvar oyida 8 000 ming so'm, fevral oyida 7 000 ming so'm hisobladi. Shuningdek, korxona jismoniy shaxsning 15 yoshli o'g'liga tibbiy xizmat ko'rsatilganligi uchun 2 000 ming so'm to'ladi va u uchun «Humson» sanatoriysiga 5 000 ming so'mlik yo'llanma sotib oldi. Yanvar-fevral oylari uchun jismoniy shaxsning daromadlaridan ushlab qolinishi lozim bo'lgan JSHDS summasi qanday?

- A. 2 640 ming so'm
- B. 1 800 ming so'm
- C. 2 400 ming so'm
- D. 2 040 ming so'm

12-savol

Korxona o'zining sobiq xodimi – mehnat layoqatini yo'qotgan II guruh nogironligi bo'lgan shaxsga sovg'a topshirdi. Quyida sanab o'tilgan qaysi holatda korxona soliq organiga bu daromadlar bo'yicha ma'lumotnoma taqdim etmasligi kerak?

- A. agar jismoniy shaxs ushbu daromaddan JSHDS ushlab qolinmasligi to'g'risida ariza taqdim etsa
- B. agar sovg'aning qiymati 2,11 MHEKMdan oshmasa
- C. har qanday holatda taqdim etishi kerak
- D. agar sovg'aning qiymati 3 MHEKMdan oshmasa

13-savol

III guruh nogironligi bo'lgan xodimga yanvar oyi uchun 10 000 ming so'm vaqtbay to'lov hisobladi, 3 000 ming so'mlik sovg'a topshirildi va davolanish uchun 4 000 ming so'm moddiy yordam ko'rsatildi. MHEKM = 1 155 ming so'm. Yanvar oyi uchun xodimning ShJBPHga badallari qaysi summadan hisoblanadi?

- A. 10 562,95 ming so'm
- B. 14 000 ming so'm
- C. 13 000 ming so'm
- D. 10 000 ming so'm

14-savol

Hisobot oyi uchun korxona xodimlarga quyidagilarni hisobladi:

- haqiqatda bajarilgan ish uchun ish haqi – 120 000 ming so'm;
- ilmiy daraja uchun ustama – 500 ming so'm;
- xodimning singlisi nikohdan o'tishi munosabati bilan unga moddiy yordam (MHEKM = 1 155 ming so'm) – 3 000 ming so'm;
- ishga borish va kelish uchun yo'lkira haqini qoplash – 3 000 ming so'm;
- pensioner xodimga pensiyaga qo'shimcha to'lov – 1 000 ming so'm;
- kasb mahorati uchun tarif stavkasiga ustama – 500 ming so'm;

- mehnatda mayib bo'lganlik bilan bog'liq zararining o'rnini qoplash bo'yicha xodimga to'lovlar: Soliq kodeksida belgilangan miqdorlarda – 5 000 ming so'm, bu miqdorlardan ortiqcha – 2 000 ming so'm, shuningdek:
- xodimga pensiyaga chiqishi munosabati bilan mukofot to'ladi – 3 000 ming so'm.

Korxona tomonidan hisoblangan ijtimoiy soliq summasi nimaga teng?

- A. 15 960 ming so'm
- B. 15 840 ming so'm
- C. 15 300 ming so'm
- D. 16 440 ming so'm

15-savol

Korxona 12 sentyabrda ro'yxatdan o'tkazilgan va ro'yxatdan o'tkazish paytida aylanmadan olinadigan soliq to'lashni tanladi. 30 noyabr holatiga ko'ra (ro'yxatdan o'tkazilgan kundan e'tiboran 80 kun) korxonaning jami daromadi 220 600 ming so'mni tashkil etdi. Keyingi yilda aylanmadan olinadigan soliq to'lovchi sifatida qolish uchun (soliqni to'lash uchun boshqa shartlarga rioya qilinganda) korxonaning dekabr oyidagi jami daromadi qaysi chegarada bo'lishi kerak?

- A. 83 509,6 ming so'mdan ortiq bo'lmagan
- B. 85 482,5 ming so'mdan ortiq bo'lmagan
- C. 84 931,5 ming so'mdan ortiq bo'lmagan
- D. 83 333,3 ming so'mdan ortiq bo'lmagan

16-savol

Komissiya shartnomasi bo'yicha komissioner – aylanmadan olinadigan soliq to'lovchi QQS to'lovchi bo'lgan komitentning tovarlarini realizatsiya qiladi. U QQS hisobga olingan holda jami 184 mln so'mlik tovar turkumini realizatsiya qildi. Vositachilik haqi realizatsiya qilingan tovarning umumiy summasining 10%ni tashkil etadi. Komissiya shartnomasi va realizatsiya qilish to'g'risidagi hisobotga muvofiq komitent komissionerga 20 mln so'mni – komissiya shartnomasi bo'yicha topshiriqni bajarish bilan bog'liq xarajatlarni qopladi. Bundan tashqari, komitent shartnomada bunday qoplash nazarda tutilmagan bo'lsa-da, komissionerda turgan o'z tovarini saqlash bo'yicha xarajatlarni ham 5 mln so'm miqdorida qopladi. Ushbu operatsiyadan komissionerning soliq solinadigan daromadi nimaga teng?

- A. 23,4 mln so'm
- B. 18,4 mln so'm
- C. 38,4 mln so'm
- D. 43,4 mln so'm

17-savol

Aylanmadan olinadigan soliq to'lovchi korxona mahsulotni ko'p marta aylanadigan tarada sotadi. Yanvar oyida 200 mln so'mlik mahsulot sotildi, shu jumladan ko'p marta aylanadigan tara qiymati – 2 mln so'm. Yanvar oyi uchun aylanmadan olinadigan soliqni hisob-kitob qilishda realizatsiya qilishning butun summasi (200 mln so'm) soliq bazasiga kiritilgan. Fevral oyida realizatsiya qilishdan olingan daromad 130 mln so'mni tashkil etdi. Shuningdek, fevral oyida korxona ilgari realizatsiya qilingan 2 mln so'mlik tarani qaytarish sifatida oldi. Fevral oyi uchun aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha soliq bazasi nimaga teng?

- A. 128 mln so'm
- B. 130 mln so'm
- C. 132 mln so'm
- D. 126 mln so'm

18-savol

Aylanmadan olinadigan soliq to'lovchi bo'lgan etkazib beruvchi 20 iyulda 90 mln so'mlik tovarni sotdi va xaridorga etkazib berishning butun summasiga hisobvaraq-faktura taqdim etdi. Avval 15 iyulda xaridor tovar qiymatining 15 foizi miqdorida – 13,5 mln so'm bo'nak to'lagan edi. Shartnomaga asosan, xaridor qolgan summani 25 iyulgacha to'lagan taqdirda unga sotib olingan tovar qiymatining 5 foizi miqdorida chegirma beriladi. Xaridor 23 iyulda to'lovni amalga oshirdi va shartnoma shartlariga muvofiq chegirmadan foydalandi. Ushbu vaziyatda etkazib beruvchi tomonidan hisobvaraq-fakturalarni taqdim etish tartibi qanday?

- A. 23 iyulda 85,5 mln so'mga hisobvaraq-faktura taqdim etiladi
- B. 20 iyulda 90 mln so'mga hisobvaraq-faktura, 23 iyulda – 4,5 mln so'mga qo'shimcha manfiy hisobvaraq-faktura taqdim etiladi
- C. 15 iyulda 13,5 mln so'mga, 20 iyulda 76,5 mln so'mga hisobvaraq-faktura, 23 iyulda esa 4,5 mln so'mga qo'shimcha manfiy hisobvaraq-faktura taqdim etiladi
- D. 15 iyulda 13,5 mln so'mga, 23 iyulda – 72 mln so'mga hisobvaraq-faktura taqdim etiladi

19-savol

Yanvar oyida aylanmadan olinadigan soliq to'lovchi bo'lgan korxona quyidagi daromadlarni oldi:

- 4 % stavka bo'yicha soliq solinadigan chakana savdodan - 100 mln so'm;
- mol-mulkni operativ ijaraga berishdan - 20 mln so'm;
- 3 % stavka bo'yicha soliq solinadigan dorixonadan - 80 mln so'm;
- asosiy vositani sotishdan - 2 mln so'm.

Fevralda korxonaning daromadlari quyidagilarni tashkil etdi:

- 4 % stavka bo'yicha soliq solinadigan chakana savdodan - 70 mln so'm;
- mol-mulkni operativ ijaraga berishdan - 20 mln so'm;
- 3 % stavka bo'yicha soliq solinadigan dorixonadan - 100 mln so'm;
- asosiy vositani sotishdan - 3 mln so'm.

Yanvar-fevral oylari uchun ijaradan va asosiy vositani sotishdan olingan daromadlar bo'yicha aylanmadan olinadigan soliq nimaga teng?

- A. 1,77 mln so'm
- B. 1,75 mln so'm
- C. 1,57 mln so'm
- D. 1,35 mln so'm

20-savol

Chet el kompaniyasi Toshkent shahrida QQS to'lovchi bo'lgan O'zbekiston korxonasidan engil avtomobilni ijaraga oladi. Qaysi holda O'zbekiston korxonasida chet el kompaniyasiga transport vositasini ijaraga berish xizmatlaridan QQS to'lash bo'yicha majburiyat yuzaga keladi?

- A. agar ijara shartnomasi 30 kundan ortiq muddatga tuzilgan bo'lsa
- B. agar chet el kompaniyasi ijaraga olingan avtomobildan O'zbekiston hududida foydalansa
- C. agar ijara shartnomasi 30 kungacha muddatga tuzilgan bo'lsa
- D. har qanday holatda, chunki korxona QQS to'lovchisi hisoblanadi

21-savol

QQS to'lovchi bo'lgan korxona protez-ortopediya buyumlarini ishlab chiqaradi. Soliq davrida QQS to'lovchi bo'lgan vositachi tashkilot orqali 112 000 ming so'mlik mahsulot sotildi. Komissionerga to'langan vositachilik haqi summasi 11 200 ming so'mni tashkil etdi. Ikkala korxona tomonidan hisoblangan realizatsiya qilish bo'yicha QQSning umumiy summasi nimaga teng?

- A. 13 200 ming so'm
- B. 0 so'm
- C. 1 200 ming so'm
- D. 14 784 ming so'm

22-savol

QQS to'lovchi bo'lgan savdo korxonasi QQS to'lovchi bo'lgan qurilish tashkiloti bilan ombor binosini ta'mirlash bo'yicha pudrat shartnomasini tuzdi. Shartnoma shartlariga asosan pudratchi ta'mirlash ishlarini bajarishda o'z materiallaridan foydalanadi. Savdo korxonasida tannarxi 3 mln so'mlik qurilish materiallari mavjud bo'lib, ularni omborni ta'mirlashda foydalanish uchun pudratchiga realizatsiya qildi. Ta'mirlash ishlarining qiymati QQSn hisobga olmagan holda jami 112 mln so'mni tashkil etdi. Pudrat tashkiloti buyurtmachiga qanday summada QQS taqdim etadi?

- A. 13,08 mln so'm
- B. 13,8 mln so'm
- C. 12 mln so'm
- D. 13,44 mln so'm

23-savol

QQS to'lovchi bo'lgan korxona qayta sotish uchun tovarlarni import qiladi. Bojxona yuk deklaratsiyasi may oyida rasmiylashtirildi, xuddi shu oyda import qilinganda 6 mln so'm QQS to'landi. Iyun oyida tovarlar turkumining 80 %, iyul oyida – qolgan 20 % realizatsiya qilindi. Qanday summada QQSni va qaysi oyda hisobga olish kerak?

- A. 4,8 mln so'mni iyunda va 1,2 mln so'mni iyulda
- B. 6 mln so'mni iyulda
- C. 6 mln so'mni iyunda
- D. 6 mln so'mni mayda

24-savol

5 oktyabrda aylanmadan olinadigan soliq to'lovchi bo'lgan korxona QQS to'lovchi sifatida ixtiyoriy ravishda ro'yxatdan o'tish to'g'risida xabarnoma taqdim etdi. Ushbu korxona qanday soliqlarni va joriy yilning qaysi davri uchun to'laydi?

- A. yanvar – sentyabr oylari uchun aylanmadan olinadigan soliq, oktyabr – dekabr oylari uchun QQS va foyda solig'i
- B. 1 yanvardan 4 oktyabrgacha bo'lgan davr uchun aylanmadan olinadigan soliq, 5 oktyabrdan 31 dekabrgacha – QQS va foyda solig'i
- C. butun yil uchun aylanmadan olinadigan soliq
- D. yanvar – oktyabr oylari uchun aylanmadan olinadigan soliq, noyabr – dekabr oylari uchun QQS va foyda solig'i

25-savol

Sanab o'tilgan qaysi aylanmalar bo'yicha soliq to'lovchi byudjetdan qoplab olishga haqli bo'lgan QQSning manfiy summasi yuzaga kelishi mumkin emas? (6.5 E-b.)

- A. xalqaro tashishlar bilan bevosita bog'liq xizmatlar bo'yicha
- B. tovarlarni eksportga realizatsiya qilish bo'yicha
- C. soliq solishdan ozod etilgan tovarlar (xizmatlar)ni realizatsiya qilish bo'yicha
- D. realizatsiya qilish joyi O'zbekiston deb e'tirof etilmaydigan xizmatlar bo'yicha

26-savol

Hisobot davri uchun QQS to'lovchi bo'lgan ko'p tarmoqli korxonaning faoliyati ko'rsatkichlari quyidagicha:

- QQS hisobga olingan holda 224 mln so'm miqdorida mahsulot ishlab chiqarilgan, shu jumladan 134,4 mln so'mga realizatsiya qilingan;
- QQS hisobga olingan holda 44,8 mln so'm miqdorida tovarlar realizatsiya qilingan;
- komissiya shartnomasi bo'yicha QQS to'lovchisi bo'lmagan komitentdan realizatsiya qilish uchun 20 mln so'm miqdorida tovarlar olingan. Shundan 11,2 mln so'mga realizatsiya qilingan. Vositachilik haqi summasi – 1,12 mln so'm.

Foyda solig'ini hisoblab chiqarish maqsadida korxonaning jami daromadi nimaga teng?

- A. 161 mln so'm.

- B. 251 mln so'm.
- C. 170 mln so'm.
- D. 241 mln so'm.

27-savol

QQS to'lovchisi bo'lgan korxona boshqa korxona (MChJ) ustav fondiga hissa sifatida uskunani topshirmoqda. Ta'sischi o'rtasida kelishilgan uskunaning ustav fondiga hissa sifatidagi qiymati uning bozor qiymatiga muvofiq keladi va 56 mln so'mni tashkil etadi. Uskunaning tiklash qiymati – 40 mln so'm. Buxgalteriya hisobi ma'lumotlari bo'yicha hisoblangan eskirish – 12 mln so'm, soliq hisobi bo'yicha – 10 mln so'm. Topshirish paytida qayta baholash saldosi – 3 mln so'm, shu jumladan 01.01.2021 yil holatiga – 2 mln so'm. Foyda solig'ini hisoblab chiqarish maqsadida aniqlanadigan uskunani topshirishdan olingan daromad nimaga teng?

- A. 22 mln so'm
- B. 23 mln so'm
- C. 28 mln so'm
- D. 31 mln so'm

28-savol

Qiymati 58 400 ming so'm bo'lgan asosiy vosita 27 noyabrda foydalanishga topshirilgan. Soliq hisobida unga amortizatsiya to'g'ri chiziqli usulda 15% me'yor bo'yicha hisoblanadi. IV chorakda foyda solig'ini hisoblab chiqarish maqsadida ushbu asosiy vosita bo'yicha hisoblangan amortizatsiya summasi nimaga teng?

- A. 730 ming so'm
- B. 816 ming so'm
- C. 826 ming so'm
- D. 840 ming so'm

29-savol

Korxona ta'sischi'larga ularning ishtirok etish ulushlaridan kelib chiqqan holda 100 mln so'm miqdorida dividendlarni taqsimladi:

- O'zbekiston rezidentiga – 60 %;
- O'zbekiston norezidentiga – 40 %.

Ilgari korxona, boshqa kompaniyaning ta'sischi bo'lgan holda undan 70 mln so'm dividendlar olgan bo'lib, ular ilgari dividendlardan olinadigan soliqni hisob-kitob qilishda chegirib tashlanmagan. Rezident bo'lgan ta'sischi uchun dividendlar tarzidagi daromadlardan olinadigan soliq bo'yicha soliq bazasi nimaga teng?

- A. 60 mln so'm
- B. 18 mln so'm
- C. 42 mln so'm
- D. 30 mln so'm

30-savol

29 noyabrda korxona qiymati 400 mln so'm bo'lgan binoni sotib oldi. U bo'yicha bir oyda hisoblanadigan amortizatsiya summasi 1 mln so'mni tashkil etdi. Agar u soliq solish maqsadida 1 kv. m uchun belgilangan eng kam qiymatdan yuqori ekanligi inobatga olinsa, ushbu bino bo'yicha mol-mulk solig'i bo'yicha soliq bazasi nimaga teng? (8.2 A-b.)

- A. 66,58 mln so'm
- B. 399,5 mln so'm
- C. 72,24 mln so'm
- D. 33,33 mln so'm

31-savol

Korxona 1 oktyabrda qiymati 1 600 mln so'm bo'lgan binoni sotib oldi va shu oyning o'zida foydalanishga topshirdi. Binoni kadastr organida davlat ro'yxatidan o'tkazish 1 noyabrda amalga oshirildi. Hisob siyosatiga ko'ra bino bo'yicha amortizatsiya to'g'ri chiziqli usulda 3% stavka bo'yicha hisoblanadi. Mol-mulk solig'ini hisoblab chiqarish maqsadida binoning o'rtacha yillik qoldiq qiymati nimaga teng?

- A. 399 mln so'm
- B. 398 mln so'm
- C. 399,7 mln so'm
- D. 400 mln so'm

32-savol

Korxona 8 qavatli binoda joylashgan maydoni 400 kv.m bo'lgan noturar joyga ega. Mazkur holda er solig'i bo'yicha soliq bazasi qanday bo'ladi?

- A. 0,005 ga
- B. 0,4 ga
- C. 0,04 ga
- D. 0,05 ga

33-savol

2025 yil 1 yanvar holatiga ko'ra ishlab chiqarish korxonasi mulkida quyidagilar bor:

- maydoni 1000 kv.m bo'lgan er uchastkasida joylashgan ma'muriy-ishlab chiqarish binosi. Bino maydonining 5 % korxona tomonidan operativ ijaraga berilgan;
- do'konlar uchun ikkita bino. Ulardan birida (maydoni 100 kv.m) korxonaning firma do'koni joylashgan, boshqasi esa (maydoni 200 kv.m) operativ ijaraga berilgan;
- 9 qavatli binoda 270 kv.m maydonli ofis xonasi.

Korxonaning er uchastkalari joylashgan zonaga muvofiq keladigan bazaviy soliq stavkasi 298 100 ming so'mni tashkil etsa, 2025 yil uchun er solig'i hisob-kitobida qanday summa ko'rsatilishi kerak?

- A. 39 647,3 ming so'm
- B. 32 194,8 ming so'm
- C. 39 349,2 ming so'm
- D. 46 801,7 ming so'm

34-savol

«A» qurilish korxonasi uchta ob'ektda qurilish ishlarini bajarmoqda:

1. pudratchi sifatida buyurtmachi «V» korxonasining ob'ektda santexnika ishlarini bajarmoqda;
2. buyurtmachi hamda pudratchi bo'lgan holda yangi qurilish maydonchasida turar-joy binosini qurmoqda;
3. o'z hududida ombor binosini qurmoqda, bunda ishlarning bir qismini pudratchi – «S» korxonasi bajarmoqda.

Qurilish jarayonida barcha ob'ektlarda suvdan foydalanilmoqda. «A» korxonasi qaysi ob'ektlar bo'yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lashi kerak?

- A. 1 va 2
- B. 2 va 3
- C. 1, 2 va 3
- D. 1 va 3

35-savol

Ishlab chiqarish korxonasi hisobot yilida er osti qudug'idan 300 kub.m suvdan foydalandi. Bundan tashqari, suv o'lchash uskunalari ko'rsatkichlariga ko'ra suv quvuri tarmog'idan 100 kub.m suv sarflangan. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasi nimaga teng?

Qo'shimcha ma'lumot:

Er usti manbalari bo'yicha soliq stavkasi	700 so'm/ kub. m
Er osti manbalari bo'yicha soliq stavkasi	850 so'm/ kub. m
Hisobot yilida suv quvuri tarmog'iga kelib tushgan suv hajmlarining nisbati	er usti manbalaridan – 90 %, er usti manbalaridan – 10 %

- A. 326 500 so'm
- B. 325 000 so'm
- C. 338 500 so'm
- D. 334 000 so'm

B BO'LIMI. SSENARIYLAR

1-ssenariy (15 ball)

O'zbekistonning soliq rezidenti bo'lgan A kichik ta'mirlash-qurilish korxonasi – aylanmadan olinadigan soliq to'lovchi.

Quyida keltirilgan barcha operatsiyalar 2025 yilning yanvar oyiga tegishli.

1. A korxonasi B korxonasidan yillik 10 % bilan 1 yil muddatga, foizlarni qarzni qaytarish paytida to'lash bilan 50 mln so'm miqdorida moliyaviy qarz oldi.

Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkasi quyidagini tashkil etadi (shartli ravishda):

- qarz olingan sanada – 14 %;
- qarzni qaytarish sanasida – 15 %.

2. Hisobot oyida korxona quyidagi ta'mirlash-qurilish ishlarini bajardi:

- markazlashtirilgan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtiriladigan buyurtmachi ob'ektida joriy ta'mirlash – 160 mln so'm. Pudrat shartnomasi 15 yanvarda tuzilgan;
- bosh pudratchi sifatida buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan ob'ektda kapital ta'mirlash ishlari – 180 mln so'm, shu jumladan o'z kuchi bilan – 100 mln so'm. Pudrat shartnomasi 5 yanvarda tuzilgan. Hisobvara-q-fakturalar ikkala ob'ekt bo'yicha 31 yanvarda imzolangan.

3. 2024 yilning noyabr oyida korxona buyurtmachi uchun 200 mln so'mlik ta'mirlash ishlarini bajardi, bunda buyurtmachi faqat 100 mln so'm to'ladi, qolgan summani pudrat shartnomasiga ko'ra u 2025 yilning yanvar oyida o'tkazishi kerak edi. Moliyaviy qiyinchiliklar tufayli buyurtmachi korxonaga qarzni to'lash muddatini 2 oyga kechiktirishni iltimos qilib murojaat qildi. 25 yanvarda tomonlar pudrat shartnomasiga qo'shimcha kelishuv tuzishdi, unga ko'ra to'lov muddati 2025 yilning mart oyiga ko'chiriladi, bunda ishlar qiymati 3 mln so'mga oshiriladi.

4. Buxgalteriya hisobi ma'lumotlariga ko'ra:

- quruvchi ishchilarga haqiqatda bajarilgan ish uchun ish haqi hisoblandi – 90 mln so'm, ma'muriyatga – 30 mln so'm;
- quruvchi ishchilarga ta'til puli – 4 mln so'm, shuningdek bir nafar ishchiga nikohdan o'tishi munosabati bilan moddiy yordam – 2 mln so'm hisoblandi;
- buxgalterga oilaviy sharoitlar munosabati bilan moddiy yordam hisoblandi – 1 mln so'm, shuningdek tug'ilgan kuni munosabati bilan qiymati 2,5 mln so'm bo'lgan sovg'a berildi;
- bosh muhandisga vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik nafaqasi hisoblandi – 0,5 mln so'm;
- maxsus qurilish texnikasidan foydalangan holda ob'ektda ishlarni bajarish uchun yakka tartibdagi tadbirkor bilan fuqarolik-huquqiy xususiyatdagi shartnoma bo'yicha to'lov hisoblandi – 3 mln so'm.

MHEKM = 1,155 mln so'm.

1-topshiriq (1+1+2 = 4 ball)

1.1.1. Ta'riflangan vaziyatda foizlar tarzidagi daromadlarga soliq solish tartibi qanday?

- A. daromad to'lash manbaida
- B. daromad oluvchida
- C. qarz shartnomasi shartlariga qarab
- D. qarz summasiga qarab

1.1.2. Ushbu vaziyatda qarz oluvchida qarz olinishi munosabati bilan qanday daromadlar yuzaga keladi?

- A. tekin olingan mulk (xizmatlar) tarzidagi daromadlar
- B. talab qilish huquqidan o'zganing foydasiga voz kechish shartnomasi bo'yicha olingan daromadlar
- C. qarz bo'yicha mukofot tarzidagi daromadlar
- D. foizlar tarzidagi daromadlar

1.1.3. Ushbu daromadlar nimaga teng?

- A. 2 mln so'm
- B. 2,5 mln so'm
- C. 0,5 mln so'm.
- D. 5 mln so'm.

2-topshiriq (1+1+1 = 3 ball)

1.2.1. Korxona markazlashtirilgan manbalardan moliyalashtiriladigan ob'ekt bo'yicha buyurtmachiga bajarilgan ishlarning qanday qiymatini taqdim etadi?

- A. 179,2 mln so'm
- B. 160 mln so'm
- C. 340 mln so'm
- D. 380,8 mln so'm

1.2.2. Korxona boshqa ob'ekt bo'yicha buyurtmachiga bajarilgan ishlarning qanday qiymatini taqdim etadi?

- A. 112 mln so'm
- B. 100 mln so'm
- C. 201,6 mln so'm
- D. 180 mln so'm

1.2.3. Korxonaning soliq hisobotida xizmatlarni realizatsiya qilishdan olingan, aylanmadan olinadigan soliq solinadigan daromad sifatida ishlarning qanday qiymati aks ettiriladi?

- A. 0 so'm
- B. 260 mln so'm
- C. 340 mln so'm
- D. 100 mln so'm

3-topshiriq (1+1 = 2 ball)

1.3.1. Korxona pudrat shartnomasi shartlari o'zgarishi munosabati bilan aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha soliq bazasiga qanday hujjat asosida tuzatish kiritadi?

- A. tuzatilgan hisobvaraq-faktura
- B. qo'shimcha hisobvaraq-faktura
- C. o'zaro hisob-kitoblar solishtirma dalolatnomasi
- D. buxgalteriya ma'lumotnomasi

1.3.2. Ushbu tuzatishni qaysi oyning soliq hisobotida aks ettirish kerak?

- A. 2024 yil noyabr oyi
- B. 2024 yil dekabr oyi
- C. 2025 yil yanvar oyi
- D. 2025 yil mart oyi

4-topshiriq (1+1+1+1+2 = 6 ball)

1.4.1. Mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar nimaga teng?

- A. 124 mln so'm
- B. 125 mln so'm
- C. 124,5 mln so'm
- D. 127 mln so'm

1.4.2. Moddiy naf tarzidagi daromadlar nimaga teng?

- A. 2,5 mln so'm
- B. 3,5 mln so'm
- C. 4,5 mln so'm
- D. 5,5 mln so'm

1.4.3. Boshqa daromadlar nimaga teng?

- A. 2 mln so'm
- B. 3 mln so'm
- C. 2,5 mln so'm
- D. 3,5 mln so'm

1.4.4. Ijtimoiy soliq nimaga teng?

- A. 14,94 mln so'm
- B. 15 mln so'm
- C. 15,24 mln so'm
- D. 14,88 mln so'm

1.4.5. Daromadlarning qanday summasiga JSHDS solinishi kerak?

- A. 124 mln so'm
- B. 125 mln so'm
- C. 125,1 mln so'm
- D. 125,6 mln so'm

2-ssenariy (15 ball)

O'zbekistonning soliq rezidenti bo'lgan event-agentligi – QQS va foyda solig'i to'lovchisi hisoblanadi.

Quyida keltirilgan barcha operatsiyalar 2025 yilning yanvar oyiga tegishli.

1. Yanvar oyida O'zbekiston Savdo-sanoat palatasining buyurtmasi bo'yicha agentlik Kuala-Lumpurda (Malayziya) va Toshkent shahrida O'zbekiston korxonalarining pulli savdo ko'rgazmalarini tashkil etdi.

2. Malayziyada bo'lgan vaqtda agentlik xodimlari event-industriyasi korxonalari uchun Malayziya tomoni tashkil etgan xalqaro konferensiyada ishtirok etishdi. Konferensiyada ishtirok etish uchun agentlik 1 000 AQSh dollari to'ladi.

Ko'rgazmani tashkil etishda agentlik Malayziya bosma nashrlari va televideniesida reklama joylashtirdi. Bu xizmatlar uchun agentlik 1 200 AQSh dollari to'ladi.

Izoh. Chet ellik shaxslarning xizmatlariga narxlarni tomonlar O'zbekistonda to'lanadigan QQSnı hisobga olmagan holda belgilagan.

Norezident bo'lgan xizmatlarnı etkazib beruvchilarning harakatlari doimiy muassasa tashkil etilishiga olib kelmaydi. Norezidentning daromadlariga O'zbekistonda soliq solinmasligi bilan bog'liq ikkiyoqlama soliq solishning oldini olish to'g'risidagi xalqaro shartnomalarning har qanday oqibatlarini e'tiborga olmang.

3. Yanvar oyida agentlik Toshkent shahrida quyidagi tekin xizmatlarnı ko'rsatdi:

- O'zbekistonning xayriya jamg'armalaridan biri uchun tadbir tashkil qilish bo'yicha. Xizmatlar tannarxi – 20 mln so'm, shunga o'xshash xizmatlarnı realizatsiya qilish qiymati – QQSnı hisobga olmagan holda 30 mln so'm;
- o'z xodimiga to'y tadbirini tashkil qilish bo'yicha. Xizmatlar tannarxi – 10 mln so'm, shunga o'xshash xizmatlarnı realizatsiya qilish qiymati – 15 mln so'm.

4. Yanvar oyida agentlik o'z faoliyati uchun quyidagi summada tovarlar (xizmatlar) sotib oldi (etkazib beruvchilar tomonidan taqdim etilgan hisobvaraƣ-fakturalarga asosan QQSnı hisobga olgan holda):

- 11,2 mln so'm – Malayziyada ko'rgazmani tashkil qilish uchun;
- 56 mln so'm – Toshkentda ko'rgazmani tashkil qilish uchun;
- 5,6 mln so'm – xayriya va to'y tadbirlarini tashkil qilish uchun.

1-topshiriq (1 + 1 = 2 ball)

2.1.1. Agentlikning savdo ko'rgazmalarini tashkil etish bo'yicha qaysi xizmatlari QQSni hisoblab chiqarish maqsadida O'zbekistonda realizatsiya qilingan deb hisoblanadi?

- A. faqat Malayziyada ko'rgazmani tashkil etish bo'yicha
- B. faqat Toshkentda ko'rgazmani tashkil etish bo'yicha
- C. ikkala ko'rgazmani tashkil etish bo'yicha
- D. ikkala ko'rgazmani tashkil etish bo'yicha xizmatlar O'zbekistonda realizatsiya qilingan deb hisoblanmaydi

2.1.2. Agentlik savdo ko'rgazmalarini tashkil etish bo'yicha qaysi xizmatlarni o'zining QQS bo'yicha hisobotida aks ettirishi kerak?

- A. faqat Malayziyada ko'rgazmani tashkil etish bo'yicha
- B. faqat Toshkentda ko'rgazmani tashkil etish bo'yicha
- C. ikkala ko'rgazmani tashkil etish bo'yicha
- D. ikkala ko'rgazmani tashkil etish bo'yicha xizmatlar QQS bo'yicha hisobotda aks ettirilmasligi kerak

2-topshiriq (2 + 1 = 3 ball)

2.2.1. Agentlik norezidentlardan olingan qaysi xizmatlar bo'yicha QQS to'lashi shart?

- A. Malayziyada konferensiyada ishtirok etish bo'yicha
- B. Malayziya OAVlarida reklama joylashtirish bo'yicha
- C. norezidentlarning hech qanday xizmatlari bo'yicha to'lashi shart emas
- D. Malayziya OAVlarida reklama joylashtirish va Malayziyada konferensiyada ishtirok etish bo'yicha

2.2.2. Agentlik norezidentlardan olingan qaysi xizmatlar bo'yicha foyda solig'i to'lashi shart?

- A. Malayziyada konferensiyada ishtirok etish bo'yicha
- B. Malayziya OAVlarida reklama joylashtirish bo'yicha
- C. norezidentlarning hech qanday xizmatlari bo'yicha to'lashi shart emas
- D. Malayziya OAVlarida reklama joylashtirish va Malayziyada konferensiyada ishtirok etish bo'yicha

3-topshiriq (2+2+3 = 7 ball)

2.3.1. Agentlik tekin ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha qanday summadagi QQSni byudjetga to'lashi kerak?

- A. 4,8 mln so'm
- B. 5,4 mln so'm
- C. 0 so'm
- D. 3,6 mln so'm

2.3.2. Agentlik xodimga bepul xizmatlar ko'rsatish munosabati bilan unga qanday summada moddiy naf tarzidagi daromadni hisoblaydi? (3.4 A-b.)

- A. 10 mln so'm
- B. 15 mln so'm
- C. 11,2 mln so'm
- D. 16,8 mln so'm

2.3.3. Bepul ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha xarajatlarning qanday summasi foyda solig'ini hisob-kitob qilishda chegirib tashlanmaydigan xarajatlarga kiritilishi kerak?

- A. 30 mln so'm
- B. 33,6 mln so'm
- C. 35,4 mln so'm
- D. 50,4 mln so'm

4-topshiriq (3 ball)

2.4.1. Ko'rgazmalar va tadbirlarni tashkil etish uchun O'zbekistonda sotib olingan tovarlar (xizmatlar) bo'yicha «kiruvchi» QQSning qanday summasi hisobga olinishi kerak?

- A. 6 mln so'm
- B. 7,8 mln so'm
- C. 6,6 mln so'm
- D. 7,2 mln so'm

A-BO'LIMI. TESTLAR

Savollarga javoblar

1-savolga javob

A.

Javobga tushuntirish:

«Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida»gi Qonunning 6-moddasiga muvofiq, MHHlar yuridik kuchining kamayishi bo'yicha quyidagi tartibda joylashtirilgan:

- Konstitutsiya;
- Qonunlar, shu jumladan kodekslar;
- Oliy Majlis palatalarining qarorlari;
- Prezidentning farmonlari va qarorlari;
- Vazirlar Mahkamasining qarorlari;
- vazirliklar va idoralarning buyruqlari va qarorlari;
- mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari.

«Soliq solish asoslari» o'quv rejasining 1.2 A-bandiga qarang

2-savolga javob

A.

«Soliq solish asoslari» o'quv rejasining 1.2 B -bandiga qarang.

3-savolga javob

D.

Javobga tushuntirish:

Agar muddatning so'nggi kuni qonunchilikka muvofiq dam olish va (yoki) ish kuni bo'lmagan kun deb e'tirof etiladigan kunga to'g'ri kelsa, dam olish kunidan va (yoki) ish kuni bo'lmagan kundan keyingi ish kuni muddatning tamom bo'lish kuni deb hisoblanadi (SK 5-m. 8-q., 86-m. 6-q.).

«Soliq solish asoslari» o'quv rejasining 1.2 E -bandiga qarang.

4-savolga javob

C.

Javobga tushuntirish:

Qat'iy belgilangan summada aylanmadan olinadigan soliq to'lovchidan olinadigan dividend tarzidagi daromadlarga soliq solinmaydi (SK 470-1-m. 7-q.). Yakka tartibdagi tadbirkor va o'zini o'zi band qilgan shaxs o'z daromadlaridan soliqlarni mustaqil ravishda to'laydi.

«Soliq solish asoslari» o'quv rejasining 1.3 D-bandiga qarang.

5-savolga javob

A.

«Soliq solish asoslari» o'quv rejasining 2.1 G -bandiga qarang

Javobga tushuntirish:

Ijara (tekin foydalanish) shartnomalarini ijara beruvchi ijara.soliq.uz orqali soliq organida hisobga qo'yadi (Ko'chmas mulk ijara yoki tekin foydalanish shartnomalarini davlat soliq xizmati organlarida hisobga qo'yish bo'yicha davlat xizmatini ko'rsatish ma'muriy reglamenti 7-b.)

6-savolga javob

A. D.

«Soliq solish asoslari» o'quv rejasining 2.2 D-bandiga qarang

Javobga tushuntirish:

Soliq solish ob'ektlari va soliq solish bilan bog'liq ob'ektlarning alohida-alohida hisobi mutanosib usul yoki to'g'ridan-to'g'ri hisobga olish usuli bilan yuritilishi mumkin (SK 80-m.).

7-savolga javob

A.

«Soliq solish asoslari» o'quv rejasining 2.3 C-bandiga qarang

Javobga tushuntirish:

Soliq to'lovchi tegishli tuzatishlar kiritish to'g'risidagi xabarnoma olingan kundan e'tiboran 10 ish kuni mobaynida aniqlashtirilgan soliq hisobotini yoki tekshiruvdan oldingi tahlil chog'ida aniqlangan tafovutlarning asosnomasini taqdim etishi shart. (SK 138-m. 7-q., 5-m. 7-q.).

8-savolga javob

B.C.

Soliq solish asoslari» o'quv rejasining 3.1 B-bandiga qarang

Javobga tushuntirish:

Norezidentlarning daromadlariga Soliq kodeksida nazarda tutilgan soliq imtiyozlari qo'llanmagan holda soliq solinadi (SK 366-m. 1-q. 2-b.).

Rezidentlarning dividend ko'rinishidagi daromadlariga boshqa korxonalarda ishtirok etishdan olingan dividendlarni hisobga olish tamoyili bo'yicha soliq solinadi. Norezidentlarning dividendlariga bunday soliq solish tartibi qo'llanilmaydi (SK 345-m.).

9-savolga javob

A.

Soliq solish asoslari» o'quv rejasining 3.2 D-bandiga qarang

Javobga tushuntirish:

Mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlarga quyidagilar kiritilmaydi:

- *vaqtincha mehnatga layoqatsizlik nafaqasi – 500 ming so'm;*
- *farzand tug'ilishi munosabati bilan moddiy yordam – 3 000 ming so'm;*
- *korxona muassisi bo'lgan direktorga dividendlar – 10 000 ming so'm.*

$$120\,000 + 500 + 10\,000 + 1\,000 + 2\,000 + 3\,000 + 1\,000 + 1\,000 = 138\,500$$

10-savolga javob

A.

Soliq solish asoslari» o'quv rejasining 3.4 C -bandiga qarang

Javobga tushuntirish:

$$30\,000 \times 5\% + 100 \times 90 \times 12\% = 2\,580$$

11-savolga javob

A.

Soliq solish asoslari» o'quv rejasining 3.4 B-bandiga qarang

Javobga tushuntirish:

Bolalarga tibbiy xizmat ko'rsatish va bolalar oromgohlariga yo'llanmalar bo'yicha imtiyozlar faqat korxona xodimlariga tatbiq etiladi (SK 378-m. 2, 3-b.).

$$(8\,000 + 7\,000 + 2\,000 + 5\,000) \times 12\% = 2\,640$$

12-savolga javob

C.

Soliq solish asoslari» o'quv rejasining 3.5 C-bandiga qarang

Javobga tushuntirish:

Soliq davri tugaganidan keyin 30 kun ichida korxona to'lov manbaida soliq solinmagan moddiy naf tarzida daromad olgan jismoniy shaxslar to'g'risida ma'lumotnomani taqdim etadi (SK 389-m. 1-q. 1-b.).

13-savolga javob

B.

Soliq solish asoslari» o'quv rejasining 3.6 D-bandiga qarang

Javobga tushuntirish:

$$10\,000 + 4\,000 = 14\,000$$

14-savolga javob

A.

Soliq solish asoslari» o'quv rejasining 4.2 S-bandiga qarang

Javobga tushuntirish:

$$(120\,000 + 500 + 3\,000 + 3\,000 + 1\,000 + 500 + 2\,000 + 3\,000) \times 12\% = 15\,960$$

15-savolga javob

A.

Soliq solish asoslari» o'quv rejasining 5.1 B-bandiga qarang

Javobga tushuntirish:

$$1\,000\,000 : 365 \times (80 + 31) - 220\,600 = 83\,509,6$$

16-savolga javob

A.

«Soliq solish asoslari» o'quv rejasining 5.2 A-bandiga qarang

Javobga tushuntirish:

$$184 \times 10\% + 5 = 23,4$$

17-savolga javob

A.

Soliq solish asoslari» o'quv rejasining 5.2 V -bandiga qarang

Javobga tushuntirish:

Ko'p marta aylanadigan tara qiymati chegirilgan jami daromad aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha soliq bazas, basharti uning qiymati ilgari tovarlarni realizatsiya qilishdan olingan daromad tarkibida hisobga olingan bo'lsa (SK 464-m. 1-q. 3-b.).

$$130 - 2 = 128$$

18-savolga javob

B.

Soliq solish asoslari» o'quv rejasining 5.2 S-bandiga qarang

Javobga tushuntirish:

Hisobvara-q-faktura tovarlarni jo'natish (topshirish) kalendar sanasida taqdim etiladi. Qo'shimcha hisobvara-q-faktura etkazib berish qiymatiga tuzatish kiritish holati yuzaga kelgan sanada taqdim etiladi (Nizom 4, 40-b., 14.08.2020 y. 489-son VMQga 2-ilova).

19-savolga javob

B.

Soliq solish asoslari» o'quv rejasining 5.2 D-bandiga qarang

Javobga tushuntirish:

$$(20 + 20) \times 4 \% + (2 + 3) \times 3 \% = 1,75$$

20-savolga javob

C.

Soliq solish asoslari» o'quv rejasining 6.2 E-bandiga qarang

Javobga tushuntirish:

Agar xizmatlar ijaraga berish paytida O'zbekiston hududida bo'lgan transport vositalarini qisqa muddatli (30 kungacha muddatga) ijaraga berish bilan bog'liq bo'lsa, O'zbekiston xizmatlarni realizatsiya qilish joyi deb e'tirof etiladi (SK 241-m. 3-q. 8-b.).

21-savolga javob

C.

Soliq solish asoslari» o'quv rejasining 6.3 A-bandiga qarang

Javobga tushuntirish:

Protez-ortopediya buyumlarini realizatsiya qilish bo'yicha aylanma QQSdan ozod qilingan (SK 243-m. 1-q. 4-b.). Bunda imtiyoz komissionerlarga tatbiq etilmaydi, chunki realizatsiya qilish bo'yicha aylanma komitentda yuzaga keladi. Komissionerda QQS bo'yicha soliq bazasi uning soliqni o'z ichiga olgan vositachilik haqi asosida aniqlanadi (SK 250-m. 1-q.).

$$11\,200 : 112 \times 12 = 1\,200$$

22-savolga javob

D.

«Soliq solish asoslari» o'quv rejasining 6.4 A-bandiga qarang

Javobga tushuntirish:

$$112 \times 12 \% = 13,44$$

23-savolga javob

D.

«Soliq solish asoslari» o'quv rejasining 6.5 A-bandiga qarang

Javobga tushuntirish:

Tovarlar import qilinganda to'langan QQS summasi to'langan sanada hisobga olinadi (SK 266-m. 1-q. 3-b.).

24-savolga javob

D.

«Soliq solish asoslari» o'quv rejasining 5.1 S-bandiga qarang

Javobga tushuntirish:

Yuridik shaxslar aylanmadan olinadigan soliqni qo'llashni QQSni to'lovchi sifatida ro'yxatdan o'tish uchun va bir vaqtning o'zida aylanmadan olinadigan soliqni to'lashni rad etishga doir ariza berilgan oydan keyingi oyning 1-sanasi boshlab ixtiyoriy ravishda rad etishga haqli (SK 462-m. 7-q.).

25-savolga javob

S.

«Soliq solish asoslari» o'quv rejasining 6.5 E-bandiga qarang

Javobga tushuntirish:

Soliq solishdan ozod etilgan tovarlar (xizmatlar)ni realizatsiya qilishda QQSning manfiy summasi yuzaga kelishi mumkin emas, chunki ushbu aylanmalar bo'yicha «kiruvchi» QQS hisobga olinmaydi (SK 267-m. 1-q. 3-b.).

26-savolga javob

A.

«Soliq solish asoslari» o'quv rejasining 7.3 A-bandiga qarang

Javobga tushuntirish:

$$(134,4 + 44,8 + 1,12) : 1,12 = 161$$

27-savolga javob

A.

«Soliq solish asoslari» o'quv rejasining 7.3 V -bandiga qarang

Javobga tushuntirish:

$$56 - (40 - 10) - 56 : 112 \times 12 + 2 = 22$$

28-savolga javob

D.

«Soliq solish asoslari» o'quv rejasining 7.4 V-bandiga qarang

Javobga tushuntirish:

noyabr oyida – 4 kun uchun, dekabr oyida – 31 kun uchun

$$58\,400 \times 15 \% : 365 \times (4 + 31) = 840$$

29-savolga javob

B.

«Soliq solish asoslari» o'quv rejasining 7.3 S-bandiga qarang

Javobga tushuntirish:

$$100 \times 60 \% - 70 \times 60 \% = 18$$

30-savolga javob

A.

«Soliq solish asoslari» o'quv rejasining 8.2 A-bandiga qarang

Javobga tushuntirish:

$$(400 + (400 - 1)) : 12 = 66,58$$

31-savolga javob

A.

«Soliq solish asoslari» o'quv rejasining 8.2 S-bandiga qarang

Javobga tushuntirish:

$$1\,600 \times 3\% : 12 = 4$$

$$(1\,600 + (1\,600 - 4) + (1\,600 - 4 - 4)) : 12 = 399$$

32-savolga javob

A.

«Soliq solish asoslari» o'quv rejasining 9.2 A -bandiga qarang

Javobga tushuntirish:

$$400 : 8 : 10\,000 = 0,005$$

33-savolga javob

A.

«Soliq solish asoslari» o'quv rejasining 9.2 S-bandiga qarang

Javobga tushuntirish:

$$(1\,000 + 100 + 200 + 270 : 9) : 10\,000 \times 298\,100 = 39\,647,3$$

34-savolga javob

B.

«Soliq solish asoslari» o'quv rejasining 10.1 A-bandiga qarang

Javobga tushuntirish:

Yuridik shaxslarning hududida ta'mirlash-qurilish ishlarini va boshqa ishlarni bajaruvchi soliq to'lovchilar ushbu ishlarni bajarish jarayonida foydalaniladigan suv uchun soliq to'lamaydi. Ta'mirlash-qurilish ishlarini va boshqa ishlarni bajarayotganda foydalaniladigan suv hajmi uchun bu ishlar qaysi yuridik shaxslar uchun bajarilayotgan bo'lsa, o'sha yuridik shaxslar soliq to'laydi. Qurilish ishlari yangi qurilish maydonchasida bajarilgan taqdirda, qurilishda foydalaniladigan suv hajmi uchun qurilish tashkiloti soliq to'laydi. (SK 444-m. 8-q.).

35-savolga javob

A.

«Soliq solish asoslari» o'quv rejasining 10.2 V-bandiga qarang

Javobga tushuntirish:

$$300 \times 850 + 100 \times 90 \% \times 700 + 100 \times 10 \% \times 850 = 326\,500$$

B-BO'LIMI. SSENARIYLAR

1-ssenariy (15 ball)

1-topshiriq javobi

«Soliq solish asoslari» o'quv rejasining 5.2 A-bandiga qarang

1.1.1.

B.

Javobga tushuntirish:

O'zbekistonning soliq rezidentiga to'lanadigan foizlar bunday daromadlar oluvchining soliq bazasida hisobga olinadi. Istisno – agar foizlar notijorat va byudjet tashkilotlariga mablag'larni depozitga joylashtirishidan to'lansa, ularga to'lov manbaida soliq solinadi. (SK 344-m.).

1.1.2.

A.

Javobga tushuntirish:

Qarz olish sanasida stavkasi MBning qayta moliyalashtirish stavkasidan kam bo'lgan foizlar to'lash sharti bilan qarz olishda qarz oluvchining tekin olingan mol-mulk (xizmatlar) tarzidagi daromadi qarz olish chog'ida MBning qayta moliyalashtirish stavkasidan kelib chiqqan holda aniqlanadi (SKning 299-m. 4-q.)

1.1.3.

A.

Javobga tushuntirish:

$$50 \times (14 - 10) \% = 2$$

2-topshiriq javobi

«Soliq solish asoslari» o'quv rejasining 5.1 S-bandiga qarang

1.2.1

B.

Javobga tushuntirish:

Moliyalashtirishning markazlashtirilgan manbalari hisobidan ob'ektlar qurilishini bajaruvchi korxonalar (bundan joriy va kapital ta'mirlash mustasno) shartnoma tuzilgan sanadan e'tiboran QQS va foyda solig'ini to'lashga o'tishi shart (SK 462-m. 14-q.).

1.2.2

D.

«Soliq solish asoslari» o'quv rejasining 5.2 A -bandiga qarang

Javobga tushuntirish:

180 mln so'm – bosh pudrat hajmi

1.2.3

B.

«Soliq solish asoslari» o'quv rejasining 5.2 A -bandiga qarang

Javobga tushuntirish:

$160 + 100 = 260$

3-topshiriq javobi

«Soliq solish asoslari» o'quv rejasining 5.2 S-bandiga qarang

1.3.1

B.

Javobga tushuntirish:

Soliq bazasiga tuzatish kiritish (salbiy yoki ijobiy) qo'shimcha hisobvara-q-faktura asosida amalga oshiriladi (SK 466-m. 4-q., 257-m. 4-q.).

1.3.2

S.

Javobga tushuntirish:

Soliq kodeksiga tuzatish kiritish ko'rsatilgan hollar yuz bergan soliq davrida amalga oshiriladi (SK 466-m 5-q.).

4-topshiriq javobi

1.4.1

B.

«Soliq solish asoslari» o'quv rejasining 3.2 D-bandiga qarang

Javobga tushuntirish:

$90 + 30 + 4 + 1 = 125$

1.4.2

A.

«Soliq solish asoslari» o'quv rejasining 3.2 D-bandiga qarang

Javobga tushuntirish:

2,5 – sovg'a

1.4.3

S.

«Soliq solish asoslari» o'quv rejasining 3.2 D-bandiga qarang

Javobga tushuntirish:

 $2 + 0,5 = 2,5$

1.4.4

B.

«Soliq solish asoslari» o'quv rejasining 4.2 S -bandiga qarang

Javobga tushuntirish:

 $125 \times 12 \% = 15$

1.4.5

D.

«Soliq solish asoslari» o'quv rejasining 3.3 D -bandiga qarang

Javobga tushuntirish:

 $90 + 30 + 4 + 1 + (2,5 - 1,155 \times 2,11) + 0,5 = 125,56295 (125,6)$

2-ssenariy (15 ball)

1-topshiriq javobi

2.1.1

B.

«Soliq solish asoslari» o'quv rejasining 6.2 E -bandiga qarang

Javobga tushuntirish:

Pulli ko'rgazmalarni tashkil etishga doir xizmatlar respublika hududida haqiqatda ko'rsatilsa, O'zbekiston hududi xizmatlarni realizatsiya qilish joyi deb e'tirof etiladi (SKning 241-m. 3-q. 3-b.).

2.1.2

S.

Javobga tushuntirish:

Hisobga olish maqsadida O'zbekiston realizatsiya qilish joyi deb e'tirof etilmaydigan ko'rsatilgan xizmatlar ham hisobotda aks ettiriladi (SK 266-m. 5-q.).

2-topshiriq javobi

2.2.1

S.

«Soliq solish asoslari» o'quv rejasining 6.4 D-bandiga qarang

Javobga tushuntirish:

Norezidentlarning hech qanday xizmatlari bo'yicha to'lashi shart emas, sababi O'zbekiston konferensiyani o'tkazish va reklama xizmatlarini realizatsiya qilish joyi emas (SKning 241-m. 3-q. 3, 9-b.).

2.2.2

S.

«Soliq solish asoslari» o'quv rejasining 7.1 V-bandiga qarang

Javobga tushuntirish:

Norezidentlarning hech qanday xizmatlari bo'yicha to'lashi shart emas, sababi ushbu xizmatlar bo'yicha daromadlar norezidentlarning O'zbekistondagi manbalardan olingan daromadlariga kirmaydi, chunki xizmatlar O'zbekiston tashqarisida ko'rsatilgan (SK 351-m. 3-q. 2-b.).

3-topshiriq javobi

2.3.1

B.

«Soliq solish asoslari» o'quv rejasining 6.4 A -bandiga qarang

Javobga tushuntirish:

Xizmatlarni bepul ko'rsatishda, bunday xizmat ko'rsatish iqtisodiy jihatdan o'zini oqlaydigan hollar bundan mustasno, QQS bo'yicha soliq bazasi xizmatlarning bozor qiymatidan kelib chiqqan holda aniqlanadi (SK 248-m. 3-q. 2-b.).

$$(30 + 15) \times 12 \% = 5,4$$

2.3.2

C.

«Soliq solish asoslari» o'quv rejasining 3.4 A-bandiga qarang

Javobga tushuntirish:

Soliq to'lovchi tomonidan yuridik shaxsdan tovarlar (xizmatlar) olingan taqdirda, ularning qiymati ularni sotib olish narxidan yoki tannarxidan kelib chiqqan holda aniqlanadi, shuningdek QQSning tegishli summasi hisobga olinadi (SK 376-m. 2, 3-q.).

$$10 \times 1,12 = 11,2$$

2.3.3

C.

«Soliq solish asoslari» o'quv rejasining 7.4 S-bandiga qarang

Javobga tushuntirish:

Foyda solig'i bo'yicha soliq bazasini aniqlashda chegirib tashlanmaydigan xarajatlar jumlasiga quyidagilar kiradi (SK 317-m.):

3) soliq to'lovchining jismoniy shaxsning moddiy naf tarzidagi daromadlari hisoblanadigan xarajatlari;

27) tekin berilgan mol-mulkning (xizmatlarning) qiymati va bunday berish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar (shu jumladan QQS summasi)

$20 + 10 + 5,4 = 35,4$ (xizmatlar t/n + QQS)

4-topshiriq javobi

2.4.1

B.

«Soliq solish asoslari» o'quv rejasining 6.5 A-bandiga qarang

Javobga tushuntirish:

$(11,2 + 56 + 5,6) : 112 \times 12 = 7,8$

В.ТХ

Солиқ солиш асослари

2026 йилги имтиҳон намунаси



Мундарижа

А БЎЛИМИ. Тестлар	2
В БЎЛИМИ. Сценарийлар	14
А-БЎЛИМИ. Тестлар	20
В-БЎЛИМИ. Сценарийлар	29

В.ТХ Солиқ солиш асослари



Эътибор беринг!

Синов имтиҳонининг тестлари ва топшириқлари 2025 йил 1 январь ҳолатига кўра амалда бўлган меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларга асосланган.



Эътибор беринг!

Топшириқларни ечишда жавоблар ёзуви қоидаларини инобатга олинг. Агар топшириқ шартида рақамлар минг ҳисобида кўрсатилган бўлса, жавоб ҳам минг ҳисобида кўрсатилиши керак.

А БЎЛИМИ. ТЕСТЛАР

Саволлар

1-савол

Қуйидаги меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларни юридик кучининг камайиши тартибида жойлаштиринг:

1. Президентнинг 30.01.2025 йилдаги «Чорвачилик ва паррандачиликни қўллаб-қувватлаш, соҳада юқори қўшилган қиймат яратиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПҚ-34-сон қарори
2. Солиқ қўмитасининг 2024 йил 26 июндаги «Юридик шахсларни йирик солиқ тўловчилар тоифасига киритишнинг мезонларини белгилаш тўғрисидаги низомга ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш ҳақида»ги 2024-08-сон қарори
3. Солиқ кодекси
4. Вазирлар Маҳкамасининг 26.12.2024 йилдаги «Ўзбекистон Республикасида электрон тижорат соҳасини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 885-сон қарори
5. Халқ депутатлари Тошкент шаҳар Кенгашининг 26.12.2024 йилдаги «2025 йил учун Тошкент шаҳар маҳаллий бюджетини тасдиқлаш тўғрисида»ги VII-4-024-14-0-К/24-сон қарори

A. 3, 1, 4, 2, 5

B. 1, 3, 4, 2, 5

C. 4, 1, 3, 5, 2

D. 3, 4, 2, 3, 5

2-савол

Солиқ кодексининг 369-моддасида «Жами даромадга киритилмайдиган даромадлар» қонун ҳужжатларида белгиланган меъёрлар доирасида солиқ агенти томонидан хизмат сафарида бўлинган вақт учун тўланадиган кундалик харажатлар учун ҳақ (суткалик пуллар) солиқ тўловчининг даромади сифатида қаралмаслиги ҳақидаги меъёр мавжуд. Ушбу меъёрнинг 369-моддадаги жойлашувини кўрсатинг - хатбоши, банд, қисм.

- A. 3-қисмнинг 8-банди 5-хатбоши
- B. 3-қисмнинг 8-банди 4-хатбоши
- C. 1-қисмнинг 19-хатбоши
- D. 3-қисмнинг 8-хатбоши

3-савол

Ҳисобот ойи учун айланмадан олинadиган солиқ бўйича ҳисоботни тақдим этиш муддатининг сўнги (15-сана) куни якшанба кунига тўғри келди. Қайси кун ҳисоботни тақдим этишнинг сўнги куни ҳисобланади? (1.2 Е-6.)

- A. якшанба, 15-сана
- B. шанба, 14-сана
- C. жума, 13-сана
- D. душанба, 16-сана

4-савол

Қуйида санаб ўтилган қайси вазият (вазиятлар)да қатъий белгиланган суммада айланмадан олинadиган солиқ тўловчи бўлган корхона солиқ агенти сифатида иш юритади?

- A. жисмоний шахс бўлган таъсисчига дивидендлар тўлашда
- B. комиссионер бўлган якка тартибдаги тадбиркорга мукофот тўлашда
- C. жисмоний шахс бўлган ижарага берувчига ижара тўловини тўлашда
- D. ўзини ўзи банд қилган шахсга у кўрсатган хизматлар учун даромад тўлашда

5-савол

Корхона юридик ва жисмоний шахслар билан кўчмас мулк ижараси шартномаларини тузади:

- 1-сонли шартномани у ижарага берувчи сифатида тузади, ижарага олувчи – юридик шахс;
- 2-сонли шартномани у ижарага берувчи сифатида тузади, ижарага олувчи – якка тартибдаги тадбиркор бўлмаган жисмоний шахс;
- 3-сонли шартномани у ижарага берувчи сифатида тузади, ижарага олувчи – якка тартибдаги тадбиркор;
- 4-сонли шартномани у ижарага олувчи сифатида тузади, ижарага берувчи – юридик шахс;
- 5-сонли шартномани у ижарага олувчи сифатида тузади, ижарага берувчи – якка тартибдаги тадбиркор бўлмаган жисмоний шахс.

Корхона қайси ижара шартномаларини ijara.soliq.uz сервиси орқали солиқ органларида ҳисобга қўйиши керак?

- A. 1, 2, 3
- B. 1, 2, 3, 4, 5
- C. 1, 3, 4
- D. 2, 5

6-савол

Солиқ солиш объектлари ва солиқ солиш билан боғлиқ объектларнинг алоҳида-алоҳида ҳисобини юритишнинг қандай усуллари мавжуд?

- A. мутаносиб усул
- B. меъёрий усул
- C. ҳисоблаш усули
- D. тўғридан-тўғри ҳисобга олиш усули

7-савол

Текширувдан олдинги таҳлил чоғида солиқ органи корхона тақдим этган солиқ ҳисоботида тафовутларни аниқлади. 13 июль куни (пайшанба куни) корхонага солиқ тўловчининг шахсий кабинети орқали солиқ ҳисоботига тегишли тузатишлар киритиш тўғрисида хабарнома юборилди. Шу куннинг ўзида корхонанинг бош бухгалтери хабарнома билан танишди. Корхона қайси санадан кечиктирмай аниқлаштирилган солиқ ҳисоботини ёки аниқланган тафовутларнинг асосномасини тақдим этиши керак?

- A. 27 июль
- B. 22 июль
- C. 26 июль
- D. 24 июль

8-савол

Ўзбекистоннинг резидент ва норезидент бўлган жисмоний шахсларга солиқ солишдаги фарқлар нимадан иборат?

- A. меҳнат шартномалари (контрактлари) ва фуқаролик-ҳуқуқий хусусиятдаги шартномалар бўйича резидентлар ва норезидентларнинг даромадларига турли солиқ ставкалари бўйича солиқ солинади
- B. норезидентларнинг даромадларига Солиқ кодексида назарда тутилган солиқ имтиёзлари қўлланилмаган ҳолда солиқ солинади
- C. резидентларнинг дивиденд тарзидаги даромадларига бошқа корхоналарда иштирок этишдан олинган дивидендларни ҳисобга олиш тамойили бўйича солиқ солинади. Норезидентларнинг дивидендларига солиқ солишнинг бундай тартиби қўлланилмайди
- D. резидентларнинг мол-мулкни ижарага беришдан олинган даромадларига қонунчиликда белгиланган ижара тўловининг энг кам ставкаларини ҳисобга олган ҳолда солиқ солинади. Норезидентларнинг шунга ўхшаш даромадларига солиқ солишнинг бундай тартиби қўлланилмайди

9-савол

Ҳисобот оyi учун корхона ходимларга қўйидаги даромадларни ҳисоблади:

- ҳақиқатда бажарилган иш учун иш ҳақи – 120 000 минг сўм;
- фахрий унвон учун устама – 500 минг сўм;
- вақтинчалик меҳнатга лаёқатсизлик нафақаси – 500 минг сўм;
- корхонанинг мукофотлаш тўғрисидаги низомига мувофиқ чорак якунлари бўйича мукофот – 10 000 минг сўм;
- туғилган кун муносабати билан мукофот – 1 000 минг сўм;
- иситиш тизимининг шикастланиши муносабати билан квартирани қисман таъмирлаш учун моддий ёрдам – 2 000 минг сўм;
- фарзанд туғилиши муносабати билан моддий ёрдам – 3 000 минг сўм;
- овқатланиш учун қўшимча тўлов – 3 000 минг сўм;
- пенсионер ходимга пенсияга қўшимча тўлов – 1 000 минг сўм;
- корхона муассиси бўлган директорга дивидендлар – 10 000 минг сўм;
- мураббийлик учун лавозим маошига устама – 1 000 минг сўм.

Корхона томонидан ҳисобланган меҳнатга ҳақ тўлаш тарзидаги даромадлар нимага тенг?

- A. 138 500 минг сўм
- B. 139 000 минг сўм
- C. 137 000 минг сўм
- D. 137 500 минг сўм

10-савол

Таъсисчилар умумий йиғилишининг қарорига кўра корхона таъсисчилардан бири –Ўзбекистон резидентига 30 000 минг сўм миқдорида дивидендлар ҳисоблади. Дивидендлар тўлови ҳисобига унга 10 000 минг сўмлик қурилиш материаллари берилади. Қолган сумма пул маблағлари билан тўланади. Берилган материалларнинг таннари 8 000 минг сўмга тенг. Шунингдек, корхона ушбу муассисдан майдони 100 кв.м бўлган нотурар жойни (ер солиғи бўйича солиқ солиш мақсадларида белгиланган 2-зона) ижарага олади. Шартномага асосан ижара тўловининг миқдори ойига 7 000 минг сўмни ташкил этади. Тошкент шаҳрининг 2-зонасида нотурар жойларни ижарага берувчи жисмоний шахслар учун солиқ солиш мақсадларида белгиланган ижара тўловининг энг кам ставкаси оширувчи коэффициентни ҳисобга олган ҳолда умумий майдоннинг 1 кв. метри учун ойига 90 минг сўмга тенг. Таъсисчининг даромадларидан ушлаб қолиниши лозим бўлган ЖШДС нимага тенг?

- A. 2 580 минг сўм
- B. 2 340 минг сўм
- C. 2 080 минг сўм
- D. 1 840 минг сўм

11-савол

Фуқаролик-ҳуқуқий хусусиятдаги шартнома бўйича кўрсатилган хизматлар учун корхона жисмоний шахсга январь ойида 8 000 минг сўм, февраль ойида 7 000 минг сўм ҳисоблади. Шунингдек, корхона жисмоний шахснинг 15 ёшли ўғлига тиббий хизмат кўрсатилганлиги учун 2 000 минг сўм тўлади ва у учун «Хумсон» санаторийсига 5 000 минг сўмлик йўлланма сотиб олди. Январь-февраль ойлари учун жисмоний шахснинг даромадларидан ушлаб қолиниши лозим бўлган ЖШДС суммаси қандай?

- A. 2 640 минг сўм
- B. 1 800 минг сўм
- C. 2 400 минг сўм
- D. 2 040 минг сўм

12-савол

Корхона ўзининг собиқ ходими – меҳнат лаёқатини йўқотган II гуруҳ ногиронлиги бўлган шахсга совға топширди. Қуйида санаб ўтилган қайси ҳолатда корхона солиқ органига бу даромадлар бўйича маълумотнома тақдим этмаслиги керак?

- A. агар жисмоний шахс ушбу даромаддан ЖШДС ушлаб қолинмаслиги тўғрисида ариза тақдим этса
- B. агар совғанинг қиймати 2,11 МҲЭКМдан ошмаса
- C. ҳар қандай ҳолатда тақдим этиши керак
- D. агар совғанинг қиймати 3 МҲЭКМдан ошмаса

13-савол

III гуруҳ ногиронлиги бўлган ходимга январ ойи учун 10 000 минг сўм вақтбай тўлов ҳисобланди, 3 000 минг сўмлик совға топширилди ва даволаниш учун 4 000 минг сўм моддий ёрдам кўрсатилди. МҲЭКМ = 1 155 минг сўм. Январ ойи учун ходимнинг ШЖБПХга бадаллари қайси суммадан ҳисобланади?

- A. 10 562,95 минг сўм
- B. 14 000 минг сўм
- C. 13 000 минг сўм
- D. 10 000 минг сўм

14-савол

Ҳисобот ойи учун корхона ходимларга қуйидагиларни ҳисоблади:

- ҳақиқатда бажарилган иш учун иш ҳақи – 120 000 минг сўм;
- илмий даража учун устама – 500 минг сўм;
- ходимнинг синглиси никоҳдан ўтиши муносабати билан унга моддий ёрдам (МҲЭКМ = 1 155 минг сўм) – 3 000 минг сўм;
- ишга бориш ва келиш учун йўлқира ҳақини қоплаш – 3 000 минг сўм;
- пенсионер ходимга пенсияга қўшимча тўлов – 1 000 минг сўм;
- касб маҳорати учун тариф ставкасига устама – 500 минг сўм;

- меҳнатда майиб бўлганлик билан боғлиқ зарарнинг ўрнини қоплаш бўйича ходимга тўловлар: Солиқ кодексида белгиланган миқдорларда – 5 000 минг сўм, бу миқдорлардан ортиқча – 2 000 минг сўм, шунингдек:
- ходимга пенсияга чиқиши муносабати билан мукофот тўлади – 3 000 минг сўм.

Корхона томонидан ҳисобланган ижтимоий солиқ суммаси нимага тенг?

- A. 15 960 минг сўм
- B. 15 840 минг сўм
- C. 15 300 минг сўм
- D. 16 440 минг сўм

15-савол

Корхона 12 сентябрда рўйхатдан ўтказилган ва рўйхатдан ўтказиш пайтида айланмадан олинadиган солиқ тўлашни танлади. 30 ноябрь ҳолатига кўра (рўйхатдан ўтказилган кундан эътиборан 80 кун) корхонанинг жами даромади 220 600 минг сўмни ташкил этди. Кейинги йилда айланмадан олинadиган солиқ тўловчи сифатида қолиш учун (солиқни тўлаш учун бошқа шартларга риоя қилинганда) корхонанинг декабрь ойидаги жами даромади қайси чегарада бўлиши керак?

- A. 83 509,6 минг сўмдан ортиқ бўлмаган
- B. 85 482,5 минг сўмдан ортиқ бўлмаган
- C. 84 931,5 минг сўмдан ортиқ бўлмаган
- D. 83 333,3 минг сўмдан ортиқ бўлмаган

16-савол

Комиссия шартномаси бўйича коммиссионер – айланмадан олинadиган солиқ тўловчи ҚҚС тўловчи бўлган комитентнинг товарларини реализация қилади. У ҚҚС ҳисобга олинган ҳолда жами 184 млн сўмлик товар туркумини реализация қилди. Воситачилик ҳақи реализация қилинган товарнинг умумий суммасининг 10%ни ташкил этади. Комиссия шартномаси ва реализация қилиш тўғрисидаги ҳисоботга мувофиқ комитент коммиссионерга 20 млн сўмни – комиссия шартномаси бўйича топшириқни бажариш билан боғлиқ харажатларни қоплади. Бундан ташқари, комитент шартномада бундай қоплаш назарда тутилмаган бўлса-да, коммиссионерда турган ўз товарини сақлаш бўйича харажатларни ҳам 5 млн сўм миқдорида қоплади. Ушбу операциядан коммиссионернинг солиқ солинадиган даромади нимага тенг?

- A. 23,4 млн сўм
- B. 18,4 млн сўм
- C. 38,4 млн сўм
- D. 43,4 млн сўм

17-савол

Айланмадан олинadиган солиқ тўловчи корхона маҳсулотни кўп марта айланадиган тарада сотади. Январь ойида 200 млн сўмлик маҳсулот сотилди, шу жумладан кўп марта айланадиган тара қиймати - 2 млн сўм. Январь ойи учун айланмадан олинadиган солиқни ҳисоб-китоб қилишда реализация қилишнинг

бутун суммаси (200 млн сўм) солиқ базасига киритилган. Февраль ойида реализация қилишдан олинган даромад 130 млн сўмни ташкил этди. Шунингдек, февраль ойида корхона илгари реализация қилинган 2 млн сўмлик тарани қайтариш сифатида олди. Февраль ойи учун айланмадан олинadиган солиқ бўйича солиқ базаси нимага тенг?

- A. 128 млн сўм
- B. 130 млн сўм
- C. 132 млн сўм
- D. 126 млн сўм

18-савол

Айланмадан олинadиган солиқ тўловчи бўлган етказиб берувчи 20 июлда 90 млн сўмлик товарни сотди ва харидорга етказиб беришнинг бутун суммасига ҳисобварақ-фактура тақдим этди. Аввал 15 июлда харидор товар қийматининг 15 фоизи миқдорида – 13,5 млн сўм бўлак тўлаган эди. Шартномага асосан, харидор қолган суммани 25 июлгача тўлаган тақдирда унга сотиб олинган товар қийматининг 5 фоизи миқдорида чегирма берилади. Харидор 23 июлда тўловни амалга оширди ва шартнома шартларига мувофиқ чегирмадан фойдаланди. Ушбу вазиятда етказиб берувчи томонидан ҳисобварақ-фактураларни тақдим этиш тартиби қандай?

- A. 23 июлда 85,5 млн сўмга ҳисобварақ-фактура тақдим этилади
- B. 20 июлда 90 млн сўмга ҳисобварақ-фактура, 23 июлда – 4,5 млн сўмга қўшимча манфий ҳисобварақ-фактура тақдим этилади
- C. 15 июлда 13,5 млн сўмга, 20 июлда 76,5 млн сўмга ҳисобварақ-фактура, 23 июлда эса 4,5 млн сўмга қўшимча манфий ҳисобварақ-фактура тақдим этилади
- D. 15 июлда 13,5 млн сўмга, 23 июлда – 72 млн сўмга ҳисобварақ-фактура тақдим этилади

19-савол

Январь ойида айланмадан олинadиган солиқ тўловчи бўлган корхона қуйидаги даромадларни олди:

- 4% ставка бўйича солиқ солинадиган чакана савдодан – 100 млн сўм;
- мол-мулкни оператив ижарага беришдан – 20 млн сўм;
- 3% ставка бўйича солиқ солинадиган дорихонадан – 80 млн сўм;
- асосий воситани сотишдан – 2 млн сўм.

Февралда корхонанинг даромадлари қуйидагиларни ташкил этди:

- 4% ставка бўйича солиқ солинадиган чакана савдодан – 70 млн сўм;
- мол-мулкни оператив ижарага беришдан – 20 млн сўм;
- 3% ставка бўйича солиқ солинадиган дорихонадан – 100 млн сўм;
- асосий воситани сотишдан – 3 млн сўм.

Январь-февраль ойлари учун ижарадан ва асосий воситани сотишдан олинган даромадлар бўйича айланмадан олинadиган солиқ нимага тенг?

- A. 1,77 млн сўм
- B. 1,75 млн сўм
- C. 1,57 млн сўм
- D. 1,35 млн сўм

20-савол

Чет эл компанияси Тошкент шаҳрида ҚҚС тўловчи бўлган Ўзбекистон корхонасидан енгил автомобилни ижарага олади. Қайси ҳолда Ўзбекистон корхонасида чет эл компаниясига транспорт воситасини ижарага бериш хизматларидан ҚҚС тўлаш бўйича мажбурият юзага келади?

- A. агар ижара шартномаси 30 кундан ортиқ муддатга тузилган бўлса
- B. агар чет эл компанияси ижарага олинган автомобилдан Ўзбекистон ҳудудида фойдаланса
- C. агар ижара шартномаси 30 кунгача муддатга тузилган бўлса
- D. ҳар қандай ҳолатда, чунки корхона ҚҚС тўловчиси ҳисобланади

21-савол

ҚҚС тўловчи бўлган корхона протез-ортопедия буюмларини ишлаб чиқаради. Солиқ даврида ҚҚС тўловчи бўлган воситачи ташкилот орқали 112 000 минг сўмлик маҳсулот сотилди. Комиссионерга тўланган воситачилик ҳақи суммаси 11 200 минг сўмни ташкил этди. Иккала корхона томонидан ҳисобланган реализация қилиш бўйича ҚҚСнинг умумий суммаси нимага тенг?

- A. 13 200 минг сўм
- B. 0 сўм
- C. 1 200 минг сўм
- D. 14 784 минг сўм

22-савол

ҚҚС тўловчи бўлган савдо корхонаси ҚҚС тўловчи бўлган қурилиш ташкилоти билан омбор биносини таъмирлаш бўйича пудрат шартномасини тузди. Шартнома шартларига асосан пудратчи таъмирлаш ишларини бажаришда ўз материалларидан фойдаланади. Савдо корхонасида таннархи 3 млн сўмлик қурилиш материаллари мавжуд бўлиб, уларни омборни таъмирлашда фойдаланиш учун пудратчига реализация қилди. Таъмирлаш ишларининг қиймати ҚҚСни ҳисобга олмаган ҳолда жами 112 млн сўмни ташкил этди. Пудрат ташкилоти буюртмачига қандай суммада ҚҚС тақдим этади?

- A. 13,08 млн сўм
- B. 13,8 млн сўм
- C. 12 млн сўм
- D. 13,44 млн сўм

23-савол

ҚҚС тўловчи бўлган корхона қайта сотиш учун товарларни импорт қилади. Божхона юк декларацияси май ойида расмийлаштирилди, худди шу ойда импорт қилинганда 6 млн сўм ҚҚС тўланди. Июнь ойида товарлар туркумининг 80 %, июль ойида – қолган 20 % реализация қилинди. Қандай суммада ҚҚСни ва қайси ойда ҳисобга олиш керак?

- A. 4,8 млн сўмни июнда ва 1,2 млн сўмни июлда
- B. 6 млн сўмни июлда
- C. 6 млн сўмни июнда
- D. 6 млн сўмни майда

24-савол

5 октябрда айланмадан олинadиган солиқ тўловчи бўлган корхона ҚҚС тўловчи сифатида ихтиёрий равишда рўйхатдан ўтиш тўғрисида хабарнома тақдим этди. Ушбу корхона қандай солиқларни ва жорий йилнинг қайси даври учун тўлайди?

- A. январь – сентябрь ойлари учун айланмадан олинadиган солиқ, октябрь – декабрь ойлари учун ҚҚС ва фойда солиғи
- B. 1 январдан 4 октябргача бўлган давр учун айланмадан олинadиган солиқ, 5 октябрдан 31 декабргача – ҚҚС ва фойда солиғи
- C. бутун йил учун айланмадан олинadиган солиқ
- D. январь – октябрь ойлари учун айланмадан олинadиган солиқ, ноябрь – декабрь ойлари учун ҚҚС ва фойда солиғи

25-савол

Санаб ўтилган қайси айланмалар бўйича солиқ тўловчи бюджетдан қоплаб олишга ҳақли бўлган ҚҚСнинг манфий суммаси юзага келиши мумкин эмас? (6.5 Е-б.)

- A. халқаро ташишлар билан бевосита боғлиқ хизматлар бўйича
- B. товарларни экспортга реализация қилиш бўйича
- C. солиқ солишдан озод этилган товарлар (хизматлар)ни реализация қилиш бўйича
- D. реализация қилиш жойи Ўзбекистон деб эътироф этилмайдиган хизматлар бўйича

26-савол

Ҳисобот даври учун ҚҚС тўловчи бўлган кўп тармоқли корхонанинг фаолияти кўрсаткичлари қуйидагича:

- ҚҚС ҳисобга олинган ҳолда 224 млн сўм миқдорида маҳсулот ишлаб чиқарилган, шу жумладан 134,4 млн сўмга реализация қилинган;
- ҚҚС ҳисобга олинган ҳолда 44,8 млн сўм миқдорида товарлар реализация қилинган;
- комиссия шартномаси бўйича ҚҚС тўловчиси бўлмаган комитентдан реализация қилиш учун 20 млн сўм миқдорида товарлар олинган. Шундан 11,2 млн сўмга реализация қилинган. Воситачилик ҳақи суммаси – 1,12 млн сўм.

Фойда солиғини ҳисоблаб чиқариш мақсадида корхонанинг жами даромади нимага тенг?

- A. 161 млн сўм.
- B. 251 млн сўм.
- C. 170 млн сўм.
- D. 241 млн сўм.

27-савол

ҚҚС тўловчиси бўлган корхона бошқа корхона (МЧЖ) устав фондига ҳисса сифатида ускунани топшироқда. Таъсисчилар ўртасида келишилган ускунанинг устав фондига ҳисса сифатидаги қиймати унинг бозор қийматига мувофиқ келади ва 56 млн сўмни ташкил этади. Усқунанинг тиклаш қиймати – 40 млн сўм. Бухгалтерия ҳисоби маълумотлари бўйича ҳисобланган эскириш – 12 млн сўм, солиқ ҳисоби бўйича – 10 млн сўм. Топшириш пайтида қайта баҳолаш сальдоси – 3 млн сўм, шу жумладан 01.01.2021 йил ҳолатига – 2 млн сўм. Фойда солиғини ҳисоблаб чиқариш мақсадида аниқланадиган усқунани топширишдан олинган даромад нимага тенг?

- A. 22 млн сўм
- B. 23 млн сўм
- C. 28 млн сўм
- D. 31 млн сўм

28-савол

Қиймати 58 400 минг сўм бўлган асосий восита 27 ноябрда фойдаланишга топширилган. Солиқ ҳисобида унга амортизация тўғри чизиқли усулда 15% меъёр бўйича ҳисобланади. IV чорақда фойда солиғини ҳисоблаб чиқариш мақсадида ушбу асосий восита бўйича ҳисобланган амортизация суммаси нимага тенг?

- A. 730 минг сўм
- B. 816 минг сўм
- C. 826 минг сўм
- D. 840 минг сўм

29-савол

Корхона таъсисчиларга уларнинг иштирок этиш улушларидан келиб чиққан ҳолда 100 млн сўм миқдорида дивидендларни тақсимлади:

- Ўзбекистон резидентига – 60 %;
- Ўзбекистон норезидентига – 40 %.

Илгари корхона, бошқа компаниянинг таъсисчиси бўлган ҳолда ундан 70 млн сўм дивидендлар олган бўлиб, улар илгари дивидендлардан олинadиган солиқни ҳисоб-китоб қилишда чегириб ташланмаган. Резидент бўлган таъсисчи учун дивидендлар тарзидаги даромадлардан олинadиган солиқ бўйича солиқ базаси нимага тенг?

- A. 60 млн сўм
- B. 18 млн сўм
- C. 42 млн сўм
- D. 30 млн сўм

30-савол

29 ноябрда корхона қиймати 400 млн сўм бўлган бинони сотиб олди. У бўйича бир ойда ҳисобланадиган амортизация суммаси 1 млн сўмни ташкил этди. Агар у солиқ солиш мақсадида 1 кв. м учун белгиланган энг кам қийматдан юқори эканлиги инobatга олинса, ушбу бино бўйича мол-мулк солиғи бўйича солиқ базаси нимага тенг? (8.2 А-б.)

- A. 66,58 млн сўм
- B. 399,5 млн сўм
- C. 72,24 млн сўм
- D. 33,33 млн сўм

31-савол

Корхона 1 октябрда қиймати 1 600 млн сўм бўлган бинони сотиб олди ва шу ойнинг ўзида фойдаланишга топширди. Бинони кадастр органида давлат рўйхатидан ўтказиш 1 ноябрда амалга оширилди. Ҳисоб сиёсатида кўра бино бўйича амортизация тўғри чизиқли усулда 3% ставка бўйича ҳисобланади. Мол-мулк солиғини ҳисоблаб чиқариш мақсадида бинонинг ўртача йиллик қолдиқ қиймати нимага тенг?

- A. 399 млн сўм
- B. 398 млн сўм
- C. 399,7 млн сўм
- D. 400 млн сўм

32-савол

Корхона 8 қаватли бинода жойлашган майдони 400 кв.м бўлган нотурар жойга эга. Мазкур ҳолда ер солиғи бўйича солиқ базаси қандай бўлади?

- A. 0,005 га.
- B. 0,4 га.
- C. 0,04 га.
- D. 0,05 га.

33-савол

2025 йил 1 январь ҳолатига кўра ишлаб чиқариш корхонаси мулкида қуйидагилар бор:

- майдони 1000 кв.м бўлган ер участкасида жойлашган маъмурий-ишлаб чиқариш биноси. Бино майдонининг 5 % корхона томонидан оператив ижарага берилган;
- дўконлар учун иккита бино. Улардан бирида (майдони 100 кв.м) корхонанинг фирма дўкони жойлашган, бошқаси эса (майдони 200 кв.м) оператив ижарага берилган;
- 9 қаватли бинода 270 кв.м майдонли офис хонаси.

Корхонанинг ер участкалари жойлашган зонага мувофиқ келадиган базавий солиқ ставкаси 298 100 минг сўмни ташкил этса, 2025 йил учун ер солиғи ҳисоб-китобида қандай сумма кўрсатилиши керак?

- A. 39 647,3 минг сўм
- B. 32 194,8 минг сўм
- C. 39 349,2 минг сўм
- D. 46 801,7 минг сўм

34-савол

«А» қурилиш корхонаси учта объектда қурилиш ишларини бажармоқда:

1. пудратчи сифатида буюртмачи «В» корхонасининг объектида сантехника ишларини бажармоқда;
2. буюртмачи ҳамда пудратчи бўлган ҳолда янги қурилиш майдончасида турар-жой биносини қўрмоқда;
3. ўз ҳудудида омбор биносини қўрмоқда, бунда ишларнинг бир қисmini пудратчи – «С» корхонаси бажармоқда.

Қурилиш жараёнида барча объектларда сувдан фойдаланилмоқда. «А» корхонаси қайси объектлар бўйича сув ресурсларидан фойдаланганлик учун солиқни тўлаши керак?

- A. 1 ва 2
- B. 2 ва 3
- C. 1, 2 ва 3
- D. 1 ва 3

35-савол

Ишлаб чиқариш корхонаси ҳисобот йилида ер ости қудуғидан 300 куб.м сувдан фойдаланди. Бундан ташқари, сув ўлчаш ускуналари кўрсаткичларига кўра сув қувури тармоғидан 100 куб.м сув сарфланган. Сув ресурсларидан фойдаланганлик учун солиқ суммаси нимага тенг?

Қўшимча маълумот:

Ер усти манбалари бўйича солиқ ставкаси	700 сўм/ куб. м
Ер ости манбалари бўйича солиқ ставкаси	850 сўм/ куб. м
Ҳисобот йилида сув қувури тармоғига келиб тушган сув ҳажмларининг нисбати	ер усти манбаларидан – 90 %, ер усти манбаларидан – 10 %

- A. 326 500 сўм
- B. 325 000 сўм
- C. 338 500 сўм
- D. 334 000 сўм

В БЎЛИМИ. СЦЕНАРИЙЛАР

1-сценарий (15 балл)

Ўзбекистоннинг солиқ резиденти бўлган А кичик таъмирлаш-қурилиш корхонаси — айланмадан олинadиган солиқ тўловчи.

Қуйида келтирилган барча операциялар 2025 йилнинг январь ойига тегишли.

1. А корхонаси Б корхонасидан йиллик 10 % билан 1 йил муддатга, фоизларни қарзни қайтариш пайтида тўлаш билан 50 млн сўм миқдорида молиявий қарз олди.

Марказий банкнинг қайта молиялаштириш ставкаси қуйидагини ташкил этади (шартли равишда):

- қарз олинган санада – 14 %;
- қарзни қайтариш санасида – 15 %.

2. Ҳисобот ойида корхона қуйидаги таъмирлаш-қурилиш ишларини бажарди:

- марказлаштирилган молиялаштириш манбалари ҳисобидан молиялаштириладиган буюртмачи объектида жорий таъмирлаш – 160 млн сўм. Пудрат шартномаси 15 январда тузилган;
- бош пудратчи сифатида буюртмачининг ўз маблағлари ҳисобидан молиялаштириладиган объектда капитал таъмирлаш ишлари – 180 млн сўм, шу жумладан ўз кучи билан – 100 млн сўм. Пудрат шартномаси 5 январда тузилган. Ҳисобварақ-фактуралар иккала объект бўйича 31 январда имзоланган.

3. 2024 йилнинг ноябрь ойида корхона буюртмачи учун 200 млн сўмлик таъмирлаш ишларини бажарди, бунда буюртмачи фақат 100 млн сўм тўлади, қолган суммани пудрат шартномасига кўра у 2025 йилнинг январь ойида ўтказиши керак эди. Молиявий қийинчиликлар туфайли буюртмачи корхонага қарзни тўлаш муддатини 2 ойга кечиктиришни илтимос қилиб мурожаат қилди. 25 январда томонлар пудрат шартномасига қўшимча келишув тузишди, унга кўра тўлов муддати 2025 йилнинг март ойига кўчирилади, бунда ишлар қиймати 3 млн сўмга оширилади.

4. Бухгалтерия ҳисоби маълумотларига кўра:

- қурувчи ишчиларга ҳақиқатда бажарилган иш учун иш ҳақи ҳисобланди – 90 млн сўм, маъмуриятга – 30 млн сўм;
- қурувчи ишчиларга таътил пули – 4 млн сўм, шунингдек бир нафар ишчига никоҳдан ўтиши муносабати билан моддий ёрдам – 2 млн сўм ҳисобланди;
- бухгалтерга оилавий шароитлар муносабати билан моддий ёрдам ҳисобланди – 1 млн сўм, шунингдек туғилган куни муносабати билан қиймати 2,5 млн сўм бўлган совға берилди;
- бош муҳандисга вақтинчалик меҳнатга лаёқатсизлик нафақаси ҳисобланди – 0,5 млн сўм;
- махсус қурилиш техникасидан фойдаланган ҳолда объектда ишларни бажариш учун якка тартибдаги тадбиркор билан фуқаролик-ҳуқуқий хусусиятдаги шартнома бўйича тўлов ҳисобланди – 3 млн сўм.

МҲЭКМ = 1,155 млн сўм.

1-топшириқ (1+1+2 = 4 балл)

1.1.1. Таърифланган вазиятда фоизлар тарзидаги даромадларга солиқ солиш тартиби қандай?

- A. даромад тўлаш манбаида
- B. даромад олувчида
- C. қарз шартномаси шартларига қараб
- D. қарз суммасига қараб

1.1.2. Ушбу вазиятда қарз олувчида қарз олиниши муносабати билан қандай даромадлар юзага келади?

- A. текин олинган мулк (хизматлар) тарзидаги даромадлар
- B. талаб қилиш ҳуқуқидан ўзганинг фойдасига воз кечиш шартномаси бўйича олинган даромадлар
- C. қарз бўйича мукофот тарзидаги даромадлар
- D. фоизлар тарзидаги даромадлар

1.1.3. Ушбу даромадлар нимага тенг?

- A. 2 млн сўм
- B. 2,5 млн сўм
- C. 0,5 млн сўм.
- D. 5 млн сўм.

2-топшириқ (1+1+1 = 3 балл)

1.2.1. Корхона марказлаштирилган манбалардан молиялаштириладиган объект бўйича буюртмачига бажарилган ишларнинг қандай қийматини тақдим этади?

- A. 179,2 млн сўм
- B. 160 млн сўм
- C. 340 млн сўм
- D. 380,8 млн сўм

1.2.2. Корхона бошқа объект бўйича буюртмачига бажарилган ишларнинг қандай қийматини тақдим этади?

- A. 112 млн сўм
- B. 100 млн сўм
- C. 201,6 млн сўм
- D. 180 млн сўм

1.2.3. Корхонанинг солиқ ҳисоботида хизматларни реализация қилишдан олинган, айланмадан олинадиган солиқ солинадиган даромад сифатида ишларнинг қандай қиймати акс эттирилади?

- A. 0 сўм
- B. 260 млн сўм
- C. 340 млн сўм
- D. 100 млн сўм

3-топшириқ (1+1 = 2 балл)

1.3.1. Корхона пудрат шартномаси шартлари ўзгариши муносабати билан айланмадан олинadиган солиқ бўйича солиқ базасига қандай ҳужжат асосида тузатиш киритади?

- A. тузатилган ҳисобварақ-фактура
- B. қўшимча ҳисобварақ-фактура
- C. ўзаро ҳисоб-китоблар солиштирма далолатномаси
- D. бухгалтерия маълумотномаси

1.3.2. Ушбу тузатишни қайси ойнинг солиқ ҳисоботида акс эттириш керак?

- A. 2024 йил ноябрь ойи
- B. 2024 йил декабрь ойи
- C. 2025 йил январь ойи
- D. 2025 йил март ойи

4-топшириқ (1+1+1+1+2 = 6 балл)

1.4.1. Меҳнатга ҳақ тўлаш тарзидаги даромадлар нимага тенг?

- A. 124 млн сўм
- B. 125 млн сўм
- C. 124,5 млн сўм
- D. 127 млн сўм

1.4.2. Моддий наф тарзидаги даромадлар нимага тенг?

- A. 2,5 млн сўм
- B. 3,5 млн сўм
- C. 4,5 млн сўм
- D. 5,5 млн сўм

1.4.3. Бошқа даромадлар нимага тенг?

- A. 2 млн сўм
- B. 3 млн сўм
- C. 2,5 млн сўм
- D. 3,5 млн сўм

1.4.4. Ижтимоий солиқ нимага тенг?

- A. 14,94 млн сўм
- B. 15 млн сўм
- C. 15,24 млн сўм
- D. 14,88 млн сўм

1.4.5. Даромадларнинг қандай суммасига ЖШДС солиниши керак?

- A. 124 млн сўм
- B. 125 млн сўм
- C. 125,1 млн сўм
- D. 125,6 млн сўм

2-сценарий (15 балл)

Ўзбекистоннинг солиқ резиденти бўлган event-агентлиги – ҚҚС ва фойда солиғи тўловчиси ҳисобланади. Қуйида келтирилган барча операциялар 2025 йилнинг январь ойига тегишли.

1. Январь ойида Ўзбекистон Савдо-саноат палатасининг буюртмаси бўйича агентлик Куала-Лумпурда (Малайзия) ва Тошкент шаҳрида Ўзбекистон корхоналарининг пулли савдо кўргазмаларини ташкил этди.

2. Малайзияда бўлган вақтда агентлик ходимлари event-индустрияси корхоналари учун Малайзия томони ташкил этган халқаро конференцияда иштирок этишди. Конференцияда иштирок этиш учун агентлик 1 000 АҚШ доллари тўлади.

Кўргазмани ташкил этишда агентлик Малайзия босма нашрлари ва телевидениесида реклама жойлаштирди. Бу хизматлар учун агентлик 1 200 АҚШ доллари тўлади.

Изоҳ. Чет эллик шахсларнинг хизматларига нархларни томонлар Ўзбекистонда тўланадиган ҚҚСни ҳисобга олмаган ҳолда белгилаган.

Норезидент бўлган хизматларни етказиб берувчиларнинг ҳаракатлари доимий муассаса ташкил этилишига олиб келмайди. Норезидентнинг даромадларига Ўзбекистонда солиқ солинмаслиги билан боғлиқ иккиёқлама солиқ солишнинг олдини олиш тўғрисидаги халқаро шартномаларнинг ҳар қандай оқибатларини эътиборга олманг.

3. Январь ойида агентлик Тошкент шаҳрида қуйидаги текин хизматларни кўрсатди:

- Ўзбекистоннинг хайрия жамғармаларидан бири учун тадбир ташкил қилиш бўйича. Хизматлар таннари – 20 млн сўм, шунга ўхшаш хизматларни реализация қилиш қиймати – ҚҚСни ҳисобга олмаган ҳолда 30 млн сўм;
- ўз ходимига тўй тадбирини ташкил қилиш бўйича. Хизматлар таннари – 10 млн сўм, шунга ўхшаш хизматларни реализация қилиш қиймати – 15 млн сўм.

4. Январь ойида агентлик ўз фаолияти учун қуйидаги суммада товарлар (хизматлар) сотиб олди (етказиб берувчилар томонидан тақдим этилган ҳисобварақ-фактураларга асосан ҚҚСни ҳисобга олган ҳолда):

- 11,2 млн сўм – Малайзияда кўргазмани ташкил қилиш учун;
- 56 млн сўм – Тошкентда кўргазмани ташкил қилиш учун;
- 5,6 млн сўм – хайрия ва тўй тадбирларини ташкил қилиш учун.

1-топшириқ (1 + 1 = 2 балл)

2.1.1. Агентликнинг савдо кўргазмаларини ташкил этиш бўйича қайси хизматлари ҚҚСни ҳисоблаб чиқариш мақсадида Ўзбекистонда реализация қилинган деб ҳисобланади?

- A. фақат Малайзияда кўргазмани ташкил этиш бўйича
- B. фақат Тошкентда кўргазмани ташкил этиш бўйича
- C. иккала кўргазмани ташкил этиш бўйича
- D. иккала кўргазмани ташкил этиш бўйича хизматлар Ўзбекистонда реализация қилинган деб ҳисобланмайди

2.1.2. Агентлик савдо кўргазмаларини ташкил этиш бўйича қайси хизматларни ўзининг ҚҚС бўйича ҳисоботида акс эттириши керак?

- A. Фақат Малайзияда кўргазмани ташкил этиш бўйича
- B. Фақат Тошкентда кўргазмани ташкил этиш бўйича
- C. Иккала кўргазмани ташкил этиш бўйича
- D. Иккала кўргазмани ташкил этиш бўйича хизматлар ҚҚС бўйича ҳисоботда акс эттирилмаслиги керак

2-топшириқ (2 + 1 = 3 балл)

2.2.1. Агентлик норезидентлардан олинган қайси хизматлар бўйича ҚҚС тўлаши шарт?

- A. Малайзияда конференцияда иштирок этиш бўйича
- B. Малайзия ОАВларида реклама жойлаштириш бўйича
- C. норезидентларнинг ҳеч қандай хизматлари бўйича тўлаши шарт эмас
- D. Малайзия ОАВларида реклама жойлаштириш ва Малайзияда конференцияда иштирок этиш бўйича

2.2.2. Агентлик норезидентлардан олинган қайси хизматлар бўйича фойда солиғи тўлаши шарт?

- A. Малайзияда конференцияда иштирок этиш бўйича
- B. Малайзия ОАВларида реклама жойлаштириш бўйича
- C. норезидентларнинг ҳеч қандай хизматлари бўйича тўлаши шарт эмас
- D. Малайзия ОАВларида реклама жойлаштириш ва Малайзияда конференцияда иштирок этиш бўйича

3-топшириқ (2+2+3 = 7 балл)

2.3.1. Агентлик текин кўрсатилган хизматлар бўйича қандай суммадаги ҚҚСни бюджетга тўлаши керак?

- A. 4,8 млн сўм
- B. 5,4 млн сўм
- C. 0 сўм
- D. 3,6 млн сўм

2.3.2. Агентлик ходимга бепул хизматлар кўрсатиш муносабати билан унга қандай суммада моддий наф тарзидаги даромадни ҳисоблайди? (3.4 А-Б.)

- A. 10 млн сўм
- B. 15 млн сўм
- C. 11,2 млн сўм
- D. 16,8 млн сўм

2.3.3. Бепул кўрсатилган хизматлар бўйича харажатларнинг қандай суммаси фойда солиғини ҳисоб-китоб қилишда чегириб ташланмайдиган харажатларга киритилиши керак?

- A. 30 млн сўм
- B. 33,6 млн сўм
- C. 35,4 млн сўм
- D. 50,4 млн сўм

4-топшириқ (3 балл)

2.4.1. Кўргазмалар ва тадбирларни ташкил этиш учун Ўзбекистонда сотиб олинган товарлар (хизматлар) бўйича «кирувчи» ҚҚСнинг қандай суммаси ҳисобга олиниши керак?

- A. 6 млн сўм
- B. 7,8 млн сўм
- C. 6,6 млн сўм
- D. 7,2 млн сўм

А-БЎЛИМИ. ТЕСТЛАР

Саволларга жавоблар

1-саволга жавоб

А.

Жавобга тушунтириш:

«Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар тўғрисида»ги Қонуннинг 6-моддасига мувофиқ, МХҲлар юридик кучининг камайиши бўйича қуйидаги тартибда жойлаштирилган:

- Конституция;
- Қонунлар, шу жумладан кодекслар;
- Олий Мажлис палаталарининг қарорлари;
- Президентнинг фармонлари ва қарорлари;
- Вазирлар Маҳкамасининг қарорлари;
- вазирликлар ва идораларнинг буйруқлари ва қарорлари;
- маҳаллий давлат ҳокимияти органларининг қарорлари.

«Солиқ солиш асослари» ўқув режасининг 1.2 А-бандига қаранг

2-саволга жавоб

А.

«Солиқ солиш асослари» ўқув режасининг 1.2 В -бандига қаранг.

3-саволга жавоб

Д.

Жавобга тушунтириш:

Агар муддатнинг сўнгги куни қонунчиликка мувофиқ дам олиш ва (ёки) иш куни бўлмаган кун деб эътироф этиладиган кунга тўғри келса, дам олиш кунидан ва (ёки) иш куни бўлмаган кундан кейинги иш куни муддатнинг тамом бўлиш куни деб ҳисобланади (СК 5-м. 8-қ., 86-м. 6-қ.).

«Солиқ солиш асослари» ўқув режасининг 1.2 Е -бандига қаранг.

4-саволга жавоб

С.

Жавобга тушунтириш:

Қатъий белгиланган суммада айланмадан олинadиган солиқ тўловчидан олинadиган дивиденд тарзидаги даромадларга солиқ солинмайди (СК 470-1-м. 7-қ.). Якка тартибдаги тадбиркор ва ўзини ўзи банд қилган шахс ўз даромадларидан солиқларни мустақил равишда тўлайди.

«Солиқ солиш асослари» ўқув режасининг 1.3 D-бандига қаранг.

5-саволга жавоб

А.

«Солиқ солиш асослари» ўқув режасининг 2.1 G -бандига қаранг

Жавобга тушунтириш:

Ижара (текин фойдаланиш) шартномаларини ижарага берувчи ijara.soliq.uz орқали солиқ органида ҳисобга қўяди (Кўчмас мулк ижара ёки текин фойдаланиш шартномаларини давлат солиқ хизмати органларида ҳисобга қўйиш бўйича давлат хизматини кўрсатиш маъмурий регламенти 7-б.)

6-саволга жавоб

А. D.

«Солиқ солиш асослари» ўқув режасининг 2.2 D-бандига қаранг

Жавобга тушунтириш:

Солиқ солиш объектлари ва солиқ солиш билан боғлиқ объектларнинг алоҳида-алоҳида ҳисоби мутаносиб усул ёки тўғридан-тўғри ҳисобга олиш усули билан юритилиши мумкин (СК 80-м.).

7-саволга жавоб

А.

«Солиқ солиш асослари» ўқув режасининг 2.3 C-бандига қаранг

Жавобга тушунтириш:

Солиқ тўловчи тегишли тузатишлар киритиш тўғрисидаги хабарнома олинган кундан эътиборан 10 иш кунни мобайнида аниқлаштирилган солиқ ҳисоботини ёки текширувдан олдинги таҳлил чоғида аниқланган тафовутларнинг асосномасини тақдим этиши шарт. (СК 138-м. 7-қ., 5-м. 7-қ.).

8-саволга жавоб

В.С.

Солиқ солиш асослари» ўқув режасининг 3.1 В-бандига қаранг

Жавобга тушунтириш:

Норезидентларнинг даромадларига Солиқ кодексда назарда тутилган солиқ имтиёзлари қўлланмаган ҳолда солиқ солинади (СК 366-м. 1-қ. 2-б.).

Резидентларнинг дивиденд кўринишидаги даромадларига бошқа корхоналарда иштирок этишдан олинган дивидендларни ҳисобга олиш тамойили бўйича солиқ солинади. Норезидентларнинг дивидендларига бундай солиқ солиш тартиби қўлланилмайди (СК 345-м.).

9-саволга жавоб

А.

Солиқ солиш асослари» ўқув режасининг 3.2 D-бандига қаранг

Жавобга тушунтириш:

Меҳнатга ҳақ тўлаш тарзидаги даромадларга қуйидагилар киритилмайди:

- вақтинча меҳнатга лаёқатсизлик нафақаси – 500 минг сўм;
- фарзанд туғилиши муносабати билан моддий ёрдам – 3 000 минг сўм;
- корхона муассиси бўлган директорга дивидендлар – 10 000 минг сўм.

$$120\,000 + 500 + 10\,000 + 1\,000 + 2\,000 + 3\,000 + 1\,000 + 1\,000 = 138\,500$$

10-саволга жавоб

А.

Солиқ солиш асослари» ўқув режасининг 3.4 С -бандига қаранг

Жавобга тушунтириш:

$$30\,000 \times 5\% + 100 \times 90 \times 12\% = 2\,580$$

11-саволга жавоб

А.

Солиқ солиш асослари» ўқув режасининг 3.4 В-бандига қаранг

Жавобга тушунтириш:

Болаларга тиббий хизмат кўрсатиш ва болалар оромгоҳларига йўлланмалар бўйича имтиёзлар фақат корхона ходимларига татбиқ этилади (СК 378-м. 2, 3-б.).

$$(8\,000 + 7\,000 + 2\,000 + 5\,000) \times 12\% = 2\,640$$

12-саволга жавоб

С.

Солиқ солиш асослари» ўқув режасининг 3.5 С-бандига қаранг

Жавобга тушунтириш:

Солиқ даври тугаганидан кейин 30 кун ичида корхона тўлов манбаида солиқ солинмаган моддий наф тарзида даромад олган жисмоний шахслар тўғрисида маълумотномани тақдим этади (СК 389-м. 1-қ. 1-б.).

13-саволга жавоб

В.

Солиқ солиш асослари» ўқув режасининг 3.6 D-бандига қаранг

Жавобга тушунтириш:

$$10\,000 + 4\,000 = 14\,000$$

14-саволга жавоб

А.

Солиқ солиш асослари» ўқув режасининг 4.2 С-бандига қаранг

Жавобга тушунтириш:

$$(120\,000 + 500 + 3\,000 + 3\,000 + 1\,000 + 500 + 2\,000 + 3\,000) \times 12\% = 15\,960$$

15-саволга жавоб

А.

Солиқ солиш асослари» ўқув режасининг 5.1 В-бандига қаранг

Жавобга тушунтириш:

$$1\,000\,000 : 365 \times (80 + 31) - 220\,600 = 83\,509,6$$

16-саволга жавоб

А.

«Солиқ солиш асослари» ўқув режасининг 5.2 А-бандига қаранг

Жавобга тушунтириш:

$$184 \times 10\% + 5 = 23,4$$

17-саволга жавоб

А.

Солиқ солиш асослари» ўқув режасининг 5.2 В -бандига қаранг

Жавобга тушунтириш:

Кўп марта айланадиган тара қиймати чегирилган жами даромад айланмадан олинадиган солиқ бўйича солиқ базас, башарти унинг қиймати илгари товарларни реализация қилишдан олинган даромад таркибида ҳисобга олинган бўлса (СК 464-м. 1-қ. 3-б.).

$$130 - 2 = 128$$

18-саволга жавоб

В.

Солиқ солиш асослари» ўқув режасининг 5.2 С-бандига қаранг

Жавобга тушунтириш:

Ҳисобварақ-фактура товарларни жўнатиш (топшириш) календарь санасида тақдим этилади. Қўшимча ҳисобварақ-фактура етказиб бериш қийматига тузатиш киритиш ҳолати юзага келган санада тақдим этилади (Низом 4, 40-б., 14.08.2020 й. 489-сон ВМҚга 2-илова).

19-саволга жавоб

В.

Солиқ солиш асослари» ўқув режасининг 5.2 D-бандига қаранг

Жавобга тушунтириш:

$$(20 + 20) \times 4 \% + (2 + 3) \times 3 \% = 1,75$$

20-саволга жавоб

С.

Солиқ солиш асослари» ўқув режасининг 6.2 Е-бандига қаранг

Жавобга тушунтириш:

Агар хизматлар ижарага бериш пайтида Ўзбекистон ҳудудида бўлган транспорт воситаларини қисқа муддатли (30 кунгача муддатга) ижарага бериш билан боғлиқ бўлса, Ўзбекистон хизматларни реализация қилиш жойи деб эътироф этилади (СК 241-м. 3-қ. 8-б.).

21-саволга жавоб

C.

Солиқ солиш асослари» ўқув режасининг 6.3 А-бандига қаранг

Жавобга тушунтириш:

Протез-ортопедия буюмларини реализация қилиш бўйича айланма ҚҚСдан озод қилинган (СК 243-м. 1-қ. 4-б.). Бунда имтиёз комиссиянерларга татбиқ этилмайди, чунки реализация қилиш бўйича айланма комитентда юзага келади. Комиссиянерда ҚҚС бўйича солиқ базаси унинг солиқни ўз ичига олган воситачилик ҳақи асосида аниқланади (СК 250-м. 1-қ.).

$$11\,200 : 112 \times 12 = 1\,200$$

22-саволга жавоб

D.

«Солиқ солиш асослари» ўқув режасининг 6.4 А-бандига қаранг

Жавобга тушунтириш:

$$112 \times 12 \% = 13,44$$

23-саволга жавоб

D.

«Солиқ солиш асослари» ўқув режасининг 6.5 А-бандига қаранг

Жавобга тушунтириш:

Товарлар импорт қилинганда тўланган ҚҚС суммаси тўланган санада ҳисобга олинади (СК 266-м. 1-қ. 3-б.).

24-саволга жавоб

D.

«Солиқ солиш асослари» ўқув режасининг 5.1 С-бандига қаранг

Жавобга тушунтириш:

Юридик шахслар айланмадан олинadиган солиқни қўллашни ҚҚСни тўловчи сифатида рўйхатдан ўтиш учун ва бир вақтнинг ўзида айланмадан олинadиган солиқни тўлашни рад этишга доир ариза берилган ойдан кейинги ойнинг 1-санасидан бошлаб ихтиёрий равишда рад этишга ҳақли (СК 462-м. 7-қ.).

25-саволга жавоб

С.

«Солиқ солиш асослари» ўқув режасининг 6.5 Е-бандига қаранг

Жавобга тушунтириш:

Солиқ солишдан озод этилган товарлар (хизматлар)ни реализация қилишда ҚҚСнинг манфий суммаси юзага келиши мумкин эмас, чунки ушбу айланмалар бўйича «кирувчи» ҚҚС ҳисобга олинмайди (СК 267-м. 1-қ. 3-б.).

26-саволга жавоб

А.

«Солиқ солиш асослари» ўқув режасининг 7.3 А-бандига қаранг

Жавобга тушунтириш:

$$(134,4 + 44,8 + 1,12) : 1,12 = 161$$

27-саволга жавоб

А.

«Солиқ солиш асослари» ўқув режасининг 7.3 В -бандига қаранг

Жавобга тушунтириш:

$$56 - (40 - 10) - 56 : 112 \times 12 + 2 = 22$$

28-саволга жавоб

Д.

«Солиқ солиш асослари» ўқув режасининг 7.4 В-бандига қаранг

Жавобга тушунтириш:

ноябрь ойида – 4 кун учун, декабрь ойида – 31 кун учун

$$58\,400 \times 15\% : 365 \times (4 + 31) = 840$$

29-саволга жавоб

В.

«Солиқ солиш асослари» ўқув режасининг 7.3 С-бандига қаранг

Жавобга тушунтириш:

$$100 \times 60\% - 70 \times 60\% = 18$$

30-саволга жавоб

А.

«Солиқ солиш асослари» ўқув режасининг 8.2 А-бандига қаранг

Жавобга тушунтириш:

$$(400 + (400 - 1)) : 12 = 66,58$$

31-саволга жавоб

А.

«Солиқ солиш асослари» ўқув режасининг 8.2 С-бандига қаранг

Жавобга тушунтириш:

$$1\,600 \times 3\% : 12 = 4$$

$$(1\,600 + (1\,600 - 4) + (1\,600 - 4 - 4)) : 12 = 399$$

32-саволга жавоб

А.

«Солиқ солиш асослари» ўқув режасининг 9.2 А -бандига қаранг

Жавобга тушунтириш:

$$400 : 8 : 10\,000 = 0,005$$

33-саволга жавоб

А.

«Солиқ солиш асослари» ўқув режасининг 9.2 С-бандига қаранг

Жавобга тушунтириш:

$$(1\,000 + 100 + 200 + 270 : 9) : 10\,000 \times 298\,100 = 39\,647,3$$

34-саволга жавоб

В.

«Солиқ солиш асослари» ўқув режасининг 10.1 А-бандига қаранг

Жавобга тушунтириш:

Юридик шахсларнинг ҳудудда таъмирлаш-қурилиш ишларини ва бошқа ишларни бажарувчи солиқ тўловчилар ушбу ишларни бажариш жараёнида фойдаланиладиган сув учун солиқ тўламайди. Таъмирлаш-қурилиш ишларини ва бошқа ишларни бажараётганда фойдаланиладиган сув ҳажми учун бу ишлар қайси юридик шахслар учун бажарилаётган бўлса, ўша юридик шахслар солиқ тўлайди. Қурилиш ишлари янги қурилиш майдончасида бажарилган тақдирда, қурилишда фойдаланиладиган сув ҳажми учун қурилиш ташкилоти солиқ тўлайди. (СК 444-м. 8-қ.).

35-саволга жавоб

А.

«Солиқ солиш асослари» ўқув режасининг 10.2 В-бандига қаранг

Жавобга тушунтириш:

$$300 \times 850 + 100 \times 90 \% \times 700 + 100 \times 10 \% \times 850 = 326\,500$$

В-БЎЛИМИ. СЦЕНАРИЙЛАР

1-сценарий (15 балл)

1-топшириқ жавоби

«Солиқ солиш асослари» ўқув режасининг 5.2 А-бандига қаранг

1.1.1.

В.

Жавобга тушунтириш:

Ўзбекистоннинг солиқ резидентига тўланадиган фоизлар бундай даромадлар олувчининг солиқ базасида ҳисобга олинади. Истисно – агар фоизлар нотижорат ва бюджет ташкилотларига маблағларни депозитга жойлаштиришидан тўланса, уларга тўлов манбаида солиқ солинади. (СК 344-м.).

1.1.2.

А.

Жавобга тушунтириш:

Қарз олиш санасида ставкаси МБнинг қайта молиялаштириш ставкасидан кам бўлган фоизлар тўлаш шарти билан қарз олишда қарз олувчининг текин олинган мол-мулк (хизматлар) тарзидаги даромади қарз олиш чоғида МБнинг қайта молиялаштириш ставкасидан келиб чиққан ҳолда аниқланади (СКнинг 299-м. 4-қ.).

1.1.3.

А.

Жавобга тушунтириш:

$$50 \times (14 - 10) \% = 2$$

2-топшириқ жавоби

«Солиқ солиш асослари» ўқув режасининг 5.1 С-бандига қаранг

1.2.1

В.

Жавобга тушунтириш:

Молиялаштиришнинг марказлаштирилган манбалари ҳисобидан объектлар қурилишини бажарувчи корхоналар (бундан **жорий** ва капитал таъмирлаш мустасно) шартнома тузилган санадан эътиборан ҚҚС ва фойда солиғини тўлашга ўтиши шарт (СК 462-м. 14-қ.).

1.2.2

D.

«Солиқ солиш асослари» ўқув режасининг 5.2 А -бандига қаранг

Жавобга тушунтириш:

180 млн сўм – бош пудрат ҳажми

1.2.3

B.

«Солиқ солиш асослари» ўқув режасининг 5.2 А -бандига қаранг

Жавобга тушунтириш:

$160 + 100 = 260$

3-топшириқ жавоби

«Солиқ солиш асослари» ўқув режасининг 5.2 С-бандига қаранг

1.3.1

B.

Жавобга тушунтириш:

Солиқ базасига тузатиш киритиш (салбий ёки ижобий) қўшимча ҳисобварақ-фактура асосида амалга оширилади (СК 466-м. 4-қ., 257-м. 4-қ.).

1.3.2

C.

Жавобга тушунтириш:

Солиқ кодексига тузатиш киритиш кўрсатилган ҳоллар юз берган солиқ даврида амалга оширилади (СК 466-м 5-қ.).

4-топшириқ жавоби

1.4.1

B.

«Солиқ солиш асослари» ўқув режасининг 3.2 D-бандига қаранг

Жавобга тушунтириш:

$90 + 30 + 4 + 1 = 125$

1.4.2

А.

«Солиқ солиш асослари» ўқув режасининг 3.2 D-бандига қаранг

Жавобга тушунтириш:

2,5 – совға

1.4.3

С.

«Солиқ солиш асослари» ўқув режасининг 3.2 D-бандига қаранг

Жавобга тушунтириш:

$2 + 0,5 = 2,5$

1.4.4

В.

«Солиқ солиш асослари» ўқув режасининг 4.2 С -бандига қаранг

Жавобга тушунтириш:

$125 \times 12 \% = 15$

1.4.5

Д.

«Солиқ солиш асослари» ўқув режасининг 3.3 D -бандига қаранг

Жавобга тушунтириш:

$90 + 30 + 4 + 1 + (2,5 - 1,155 \times 2,11) + 0,5 = 125,56295 (125,6)$

2-сценарий (15 балл)

1-топшириқ жавоби

2.1.1

В.

«Солиқ солиш асослари» ўқув режасининг 6.2 Е -бандига қаранг

Жавобга тушунтириш:

Пулли кўргазмаларни ташкил этишга доир хизматлар республика ҳудудида ҳақиқатда кўрсатилса, Ўзбекистон ҳудуди хизматларни реализация қилиш жойи деб эътироф этилади (СКнинг 241-м. 3-қ. 3-б.).

2.1.2

С.

Жавобга тушунтириш:

Ҳисобга олиш мақсадида Ўзбекистон реализация қилиш жойи деб эътироф этилмайдиган кўрсатилган хизматлар ҳам ҳисоботда акс эттирилади (СК 266-м. 5-қ.).

2-топшириқ жавоби

2.2.1

С.

«Солиқ солиш асослари» ўқув режасининг 6.4 D-бандига қаранг

Жавобга тушунтириш:

Норезидентларнинг ҳеч қандай хизматлари бўйича тўлаши шарт эмас, сабаби Ўзбекистон конференцияни ўтказиш ва реклама хизматларини реализация қилиш жойи эмас (СКнинг 241-м. 3-қ. 3, 9-б.).

2.2.2

С.

«Солиқ солиш асослари» ўқув режасининг 7.1 B-бандига қаранг

Жавобга тушунтириш:

Норезидентларнинг ҳеч қандай хизматлари бўйича тўлаши шарт эмас, сабаби ушбу хизматлар бўйича даромадлар норезидентларнинг Ўзбекистондаги манбалардан олинган даромадларига кирмайди, чунки хизматлар Ўзбекистон ташқарисида кўрсатилган (СК 351-м. 3-қ. 2-б.).

3-топшириқ жавоби

2.3.1

В.

«Солиқ солиш асослари» ўқув режасининг 6.4 А -бандига қаранг

Жавобга тушунтириш:

Хизматларни бепул кўрсатишда, бундай хизмат кўрсатиш иқтисодий жиҳатдан ўзини оқлайдиган ҳоллар бундан мустасно, ҚҚС бўйича солиқ базаси хизматларнинг бозор қийматидан келиб чиққан ҳолда аниқланади (СК 248-м. 3-қ. 2-б.).

$$(30 + 15) \times 12 \% = 5,4$$

2.3.2

С.

«Солиқ солиш асослари» ўқув режасининг 3.4 А-бандига қаранг

Жавобга тушунтириш:

Солиқ тўловчи томонидан юридик шахсдан товарлар (хизматлар) олинган тақдирда, уларнинг қиймати уларни сотиб олиш нархидан ёки таннархидан келиб чиққан ҳолда аниқланади, шунингдек ҚҚСнинг тегишли суммаси ҳисобга олинади (СК 376-м. 2, 3-қ.).

$$10 \times 1,12 = 11,2$$

2.3.3

С.

«Солиқ солиш асослари» ўқув режасининг 7.4 С-бандига қаранг

Жавобга тушунтириш:

Фойда солиғи бўйича солиқ базасини аниқлашда чегириб ташланмайдиган харажатлар жумласига қўйидагилар киради (СК 317-м.):

3) солиқ тўловчининг жисмоний шахснинг моддий наф тарзидаги даромадлари ҳисобланадиган харажатлари;

27) текин берилган мол-мулкнинг (хизматларнинг) қиймати ва бундай бериш билан боғлиқ бўлган харажатлар (шу жумладан ҚҚС суммаси)

$$20 + 10 + 5,4 = 35,4 \text{ (хизматлар т/н + ҚҚС)}$$

4-топшириқ жавоби

2.4.1

В.

«Солиқ солиш асослари» ўқув режасининг 6.5 А-бандига қаранг

Жавобга тушунтириш:

$$(11,2 + 56 + 5,6) : 112 \times 12 = 7,8$$